

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILI YO`NALISHI
4-KURS 401-GURUH TALABASI**

Umarova Feruza Nurali qizining

bakalavr darajasini olish uchun

**IBN SINO IJODIDA
MA`RIFATPARVARLIK**

mavzuidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

katta o`qituvchi A.Omonov

ANNOTATSIYA

Mazkur ishda ulug' mutafakkir olim, jahon e'tiboridagi tabib va ayni payitda ijodkor shaxs bo'lgan Abu Ali Ibn Sinoning asarlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarining aks etishi masalalari ko'rilgan.

Bu vazifani bajarishda Ibn Sinoning hayot va ijod yoli, mutafakkirning ilmiy asarlari ko'lami, Ibn Sinoning badiiyatga munosabati, Ibn Sino ijodida an'ana va novatorlik, Ibn Sino asalarida badiiy tasvir, Ibn Sino ijodida insonparvarlik g'oyalari, adib qissalaridagi ramziy ma'nolar, Ibn Sinoning o'zi yozgan tarjimai holi xususida qisqa ma'lumotlar berilgan.

O'ZBEKITON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK TILI YO'NALISHI

4 -KURS 401 -GURUH BITIRUVCHISI

UMAROVA FERUZA NURALI

QIZINING

BAKALAVR DARAJASINI Olish uchun

«IBN SINO IJODIDA MA'RIFATPARVARLIK»

MAVZUSIDA TAYYORLAGAN

BITIRUV- MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi A.Omonov.

Namangan – 2015

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	6-13
Kirish.....	14-15
1-bob. Ibn Sino- qomusiy olim.	
1.1.Ibn Sinoning hayot va ijod yoli.....	16-17
1.2.Mutafakkirning ilmiy asarlari koʻlami.....	18-24
2-bob. Ibn Sinoning badiiyatga munosabati	
2.1. Ibn Sino ijodida anʼana va novatorlik.....	25-31
2.2. Ibn Sino asalarida badiiy tasvir	32-46
3-bob. Ibn Sino qissalarida maʼrifatparvarlik	
3.1. Ibn Sino ijodida insonparvarlik gʻoyalari.....	47-51
3.2.Adib qissalaridagi ramziy maʼnolar.....	52-59
3.3. Ibn Sinoning oʻzi yozgan tarjimai holi.....	60-66
Umumiy xulosalar.....	67-69
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70-71

Ibn Sino ijodida ma'rifatparvarlik

So'z boshi

Mavzuning dolzarbligi va o'rganilishi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari

Ishning nazariy asoslari va unda qo'llangan metodlar.

Bitiruv-malakaviy ishning o'rganilish manbalari.

Tadqiqotning ahamiyati.

Ishning tuzilishi

1-bob. Ibn Sino- qomusiy olim.

1.1.Ibn Sinoning hayot va ijod yoli.

1.2.Mutafakkirning ilmiy asarlari ko'lami.

2-bob. Ibn Sinoning badiiyatga munosabati

2.1. Ibn Sino ijodida an'ana va novatorlik.

2.2. Ibn Sino asalarida badiiy tasvir.

3-bob. Ibn Sino qissalarida ma'rifatparvarlik

3.1. Ibn Sino ijodida insonparvarlik g'oyalari

3.2.Adib qissalaridagi ramziy ma'nolar

3.3. Ibn Sinoning o'zi yozgan tarjimai holi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar va slaydlar

So'zboshi

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng xalq ijodiga milliy qadriyatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ijobiy munosabatda bo'la boshlandi. Mustaqillik zudlik bilan milliy mafkura asoslarini yaratish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Ayniqsa, Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning 1997-yil 31-avgust kuni Oliy Majlis birinchi chaqiriq IX sessiyasida so'zlangan "Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori" mavzuidagi nutqida milliy mafkura tamoyillari masalasiga alohida e'tibor berildi.

1997-yil 6-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur dasturda ham badiiy adabiyot yosh avlodni milliy mafkura asosida tarbiyalashning asosiy manbalaridan biri sifatida baholandi.

Ilm-fan, san'at va madaniyat rivoji bevosita davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligi bilan chambarchas bog'liq. Adabiyot ham jamiyat taraqqiyoti qonun-qoidasiga ko'ra harakatlanuvchi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqelik, fikrlar kurashuvida badiiy aks ettiradi. Adabiyot boshqa fanlar singari borliqning sir-u sinoatlari, insonning ruhiy-ma'naviy olami, kashfiyotlari haqida tasavvur beruvchi adabiyot tarixi sifatida rivojlanib kelgan va o'z mazmun-mohiyatiga ega.

Dastlab og'zaki shaklda paydo bo'lgan badiiy ijod yozma adabiyotning vujudga kelishi uchun keng imkoniyat yaratdi. Xalq og'zaki ijodi namunalari, miflar, afsonalar, qo'shiqlar, lirik she'rlar, qahramonlik eposlari va boshqa shakldagi adabiy asarlar ham vujudga kela boshladi va buning oqibatida davrlar o'tib yozma adabiyot ham rivojlana boshladi. Yozma yodgorliklar saqlana boshlandi.

Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu-donishning asosidir. Hayotni o'rgatuvchi murabbiydir. Bu–buyuk bobomiz Sohibqiron Amir Temurning biz, avlodlarga asrlar osha meros bo'lib kelayotgan o'gitlaridan biridir.

Muhtaram yurtboshimizning “Adabiyotga eʼtibor – maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor” va “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarlarini qayta-qayta oʻqir ekanmiz, har safar ushbu oʻgitning nechogʻlik haqqoniy ekanligiga amin boʻlamiz. Maʼlumki, maʼnaviyat – oʻzlikni anglashdan boshlanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida maʼnaviyat masalasiga yuksak eʼtibor berib kelinmoqda. Davlat rahbarimizning aksariyat asarlarida mazkur masalaga eʼtibor berib kelinmoqda¹.

Prezidentimiz “Adabiyotga eʼtibor – maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor” nomli risolasini Yozuvchilar uyushmasi haqidagi fikrlar bilan boshlab, adiblarimizning masʼuliyatli mehnati barchamizning koʻz oʻngimizdan oʻtishini eslatib “Biz shoir deganda, avvalo, Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda, Abdulla Qodiriy, Oybek singari oʻz xalqi uchun nafaqat noyob isteʼdodi, ayni paytda butun hayotini bagʻishlagan buyuk va moʻtabar insonlarni tasavvur etamiz. Bir soʻz bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulugʻ bir dargoh deb biladi...”

Biz maʼnaviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz, hech qachon oʻz qobigʻimizda oʻralashib qolmasligimiz kerakligi, qisqacha aytganda, boshqa sohalar kabi adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarurligi taʼkidlanadi (Bu borada Gʻarb bilan birga Sharq mamlakatlari, jumladan, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya bilan Misr, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt kabi arab mamlakatlari bilan aloqalar kuchaytirilishi tavsiya etiladi).

Maʼlumki, biron-bir xalq maʼnaviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday eʼtirof xalqning gʻurur va iftixori, milliy orliligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu maʼnoda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning

¹ Karimov I. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – T.: “Maʼnaviyat”, 2008. – B.140.

so'nmas dahosiga hurmat – ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o'rin egallab berayotgan O'zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo'lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma'naviy ildizlari, urf-odat va an'analariga, bir so'z bilan aytganda, o'zbek xarakteri, o'zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda. Tabiiyki, uzoq-yaqindagi xorijiy do'st-u birodarlarimiz, jahon jamoatchiligi, eng avvalo, bizning zamonaviy adabiyotimiz va san'atimiz orqali qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi. Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Lekin, afsuski, bu masalada biz hali-beri ko'zga ko'rinadigan amaliy natijalarga erisha olganimiz yo'q. Ilgari o'zbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, ya'ni rus tili orqali amalga oshirilardi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan G'arb va Sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud. Uzoq yillar davomida o'zbek adabiyotini to'g'ridan-to'g'ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan iste'dodli o'g'il – qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda olijanob ishga jalb etish, bu masalani yechish bilan bevosita bog'liq bo'lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Biz, mustaqillik davrida ta'lim olayotgan yoshlar Prezidentimiz I.A.Karimovning yuqorida nomlari zikr etilgan asarlaridagi qimmatli fikrlaridan

istifoda etgan holda o'z ona tilimiz va adabiyotimizni puxta o'rganishimiz, xorijiy tillarni yaxshi o'rganib u orqali chet tilidagi adabiyotlarni o'qib, o'z ona tilimizga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilishimiz zarur bo'ladi.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo'lish matbuot, axborot va media tarmoqlari, jumladan, televidenie va radio sohasida xizmat qilishga o'zini bag'ishlangan, yetuk mutaxassis bo'lishga ahd qilgan va bu sohada o'z kelajagini ko'rmoqchi bo'lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarini faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglaymiz. I.A. Karimov o'z asarida ta'kidlab aytgan “insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta¹.”

Milliy qadriyatlarimizning yosh avlod ongiga singdirishda qadimdan meros bo'lib kelayotgan adabiyot katta rol o'ynaydi. Shu jumladan, Ibn Sino ijodidan kelib-chiqib ham shunday fikrlar aytish mumkin.

O'zbek adabiyoti tarixining mumtoz davriga mansub ijodkorlar orasida o'ziga xos uslubga, ijodiy yo'lga ega bo'lgan Ibn Sinoning katta o'rni bor. Chunki, O'rta Osiyo olim va ijodkorlariga aloqador bo'lgan ijod ahli haqida fikr yuritgan barcha olim, tarixchi, adabiyotshunoslar, albatta, Ibn Sino hayoti va ijodi haqida to'xtalgan va o'zining ijobiy fikr mulohazalarini bildirib o'tgan.

Ibn Sino yashagan davr... Bir tomonda cheksiz boylik va mansab egalari, martaba, mavqega ega bo'lgan mutaasib din peshvolari, bir tomonda ezilgan jafokash

1. Karimov I. Zamonaviy kadrlar taraqqiyotimiz muhim omilidir. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-qism. - T., O'zbekiston, 1998, 266-b.

xalq. Shunday og'ir damda yashagan va ilm-ijod bilan mashg'ul bo'lgan Ibn Sino xalq bilan birga bo'ldi. O'sha davrda yurt manfaatini himoya qilish oson bo'lmagan. Shuning uchun o'z zamonasidan boshlab Ibn Sinoning asarlari keng yoyilgan. U haqda ko'plab rivoyatlar yaratilgan.

Zero, Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov "Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy me'rosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qiladi",- deb yozgan edi. Prezidentimiz o'tmishda yaratilgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni asrab – avaylash va yosh avodga yetkazish haqida qisqa mulohaza yuritarkan, yana shularni ham ta'kidlab o'tgan edi: "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqiqiy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Ibn Sino ijodini tarixiy davrdagi hayot bilan bog'liq holda o'rganish davr talabiga aylanib qoldi, deyish mumkin. Ibn Sino asarlarini badiiy jihatlarini o'rganish ana shu xayrli ishning bir qismidir. Shu sabablarga ko'ra ushbu bitiruv-malakaviy ishimizning mavzui dolzarbdir

Mavzuning o'rganilishi

Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr sharq va g'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoni, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, Attaftazoniy, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o'z asarlarida ilm sohasidagi ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirdilar. Yevropada allomaning asarlari 12 asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, universitetlarda o'qitila boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy,

Albert Fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sinoning ilg'or fikrlaridan o'z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo'r hurmat bilan tilga oldilar.

Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda o'zbekistonda maxsus ilmiy yo'nalish — Sinoshunoslik vujudga keldi. "Tib qonunlari" ning lotincha tarjimasi to'liq holda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshq sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tillarida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi. Jahonning turli kutubxonalarida Ibn. Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi, shu jumladan, O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutda ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud. Yevropa olimlari Ye. Bishmann, Yu. Ruska Karra de Vo, X. Korbin, Kruz Xernandez, I. Garde, A. M. Guashon, X. Ley, P. Morividj, J. Saliba hamda arab, turk va eron olimlari U. Najotiy, N. Nodir, Sh. Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E. Ihsono'g'lu, F. Rahmon, M. Muso, H. G'araba, M. Shohvardiy va boshqalar Ibn Sino ijodini o'rganishga ma'lum hissa qo'shdilar. Rossiyalik olimlardan Ye. E. Bertels, Ya. Borisov, Braginskiy, I. Grigoryan, A. Petrov, A. Rozenfeld, N. Ternovskiy, V. Sagadeyev, M. Rojanskaya, tojikiston olimlaridan S. Ayniy, M. Dinorshoyev, T. Mardonov, N. Rahmatullayev, A. Bahovuddinov, Yu. Nuraliyev bu yo'nalishning rivojlanishiga xizmat qildilar. O'zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U. I. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, A. A. Semyonov, M. A. Salye, P. G. Bo'lgakov, Sh. Shoislomov, E. Talabov, H. Hikmatullayevlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar. T. N. Qoriniyoziy, I. M. Mo'minov, M. M. Xayrullayev, M. N. Boltayev, A. Axmedov, G. P. Matviyevskaya, V. K. Jumayev, N. Majidov, O. F. Fayzullayev, M. B. Baratovning

monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqiq etilgan. Rus antropologi M. M. Gerasimov, bir necha tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sino ning ham kalla suyagi asosida haykalportretini yaratgan. Andijon tibbiyot intituti xodimlari Yu. O. Otabekov, Sh. H.hamidullin, Ye. S. Sokolovalar Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini haykalbyustda tasvirladilar (1965). O'zbekistonlik rassom S. Marfin Ibn Sino badiiy portretini ishlagan (1968). Ibn Sino haqida "O'zbekfilm" studiyasi ijodkorlari (rej. E. Eshmuhamedov; O. Agishev, E. Eshmuhamedov ssenariysi) "Dahoning yoshligi" tarixiy-biografik badiiy filmini (1984) yaratdilar.

Bitiruv-malakaviy ishning maqsad va vazifalari

Ushbu bitiruv-malakaviy ishimizda Ibn. Sino ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tahlil qilishni, Ibn Sinoga xos bo'lgan uslub, uning ijodida маърифатпарварлик va uning badiiy-g'oyaviy ahamiyatini tadqiq etishni asosiy maqsad qilib olganmiz. Shu maqsadni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalar amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- 1) Ibn Sino hayoti va ijodini o'rganishga oid tadqiqot, kitob va maqolalarni o'rganish;
- 2) o'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan маърифатпарварлик g'oyalarini o'rganish;
- 3) mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining badiiy mahoratiga oid tadqiqotlarni o'rganish;
- 4) Ibn Sino she'riyatida qo'llanilgan ma'naviy san'atlarni tahlil qilish;
- 5) Ibn Sino asarlarida uchraydigan маърифатпарварлик g'oyalarini tadqiq etish orqali ijodkor mahoratini ochib berish;

1. Ushbu asarlar O'zbekiston FA qarashli Sharqshunoslik instituti kitob fondida saqlanmoqda.

- 6) Ibn Sino ijodida diniy qarashlar bilan bog'liq fikrlarni ham tahlil qilish;
- 7) ijokorning o'zbek adabiyotining rivojiga qo'shgan hissasini aniqlash.

Bitiruv – malakaviy ishning o'rganilish manbalari

Mazkur bitiruv – malakaviy ishni yozishimizda Ibn Sinoning “Kitobul ishorat fil mantiq val hikmat”, “Salomon va Ibsol” asarlaridan va olimning Abdusodiq Irisov tamonidan arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan “Ibn Sinoning o'zi yozgan tarjimai holi”¹ kitoblaridan foydalandik. Shuningdek,

mumtoz adabiyotimiz namoyandalari hayoti va faoliyati haqida bahs yuritilgan qo'llanma, risola va maqola, darsliklardan foydalanib, ulardan kerakli o'rinlarda ko'chirma oldik.

Bitiruv – malakaviy ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati

Ushbu bitiruv – malakaviy ishimizning ilmiy yangiligi quyidagi fikrlarda o'z aksini topgan:

1) Ibn Sino ijodiga oid XX asrda va undan keyin, ya'ni mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarni tahlil qilindi, qiyoslandi, yutuq va kamchiliklari ko'rsatib o'tildi;

2) Ibn Sino asarlari mumtoz an'analar asosida rivojlanganligi, unda boshqa shoirlar ijodiga ergashish, ulardan o'rganishga intilish borligi ochib berildi;

Ibn Sino asarlaridagi маърифатпарварлик g'oyalarini tahlil qilindi va ularning ahamiyati ko'rsatildi;

Ibn Sino ijodiga xos bo'lgan uslublar tahlil qilindi.

Mazkur bitiruv – malakaviy ishimiz natijalari va ilmiy xulosalaridan Ibn Sino ning ijodiy merosiga oid ma'ruzalarni hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil

etishda ham foydalanish mumkin.

Shuningdek, Ibn Sino hayoti va ijodi bilan bog'liq adabiy kecha va uchrashuvlar o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

Bu xususiyatlar mazkur ishimizning amaliy jihatlarini tashkil qiladi.

Bitiruv – malakaviy ishning tuzilishi

Mazkur bitiruv – malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va slaydlardan iboratdir.

KIRISH

Abu ali Ibn Sino O'rta Osiyo turkiy olimi, faylasufi. 980yilning 18 iyunida buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan va 1037 yilning 16 avgustida Hamadonda vafot etgan. G'arbda Avitsenna

(ingl. Avicenna) ismi bilan mashhur. Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (967—997) davrida Buxoro tomoniga ko'chib, Hurmaysan qishlog'iga moliya amaldori etib tayinlanadi. U Afshona qishlog'ida Sitara ismli qizga uylanib ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'illarining kattasi Husayn kenjasi mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirgach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt — Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. 10 yoshga yetar-yetmas Ibn Sino Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtiradi. Ayni vaqtda u hisob va aljabr bilan ham shug'ullanadi, arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi. Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy edi. U el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur bo'lgani uchun otasi Ibn Sinoni unga shogirdlikka berdi. Notiliyning qo'lida olim mantiq, handasa va falakiyotni o'rgandi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'zib ketdi. Ibn Sinoning aql-zakovatini ko'rgan ustozlari otasiga uni ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslikni tayinlaydi. Shundan so'ng ota o'g'ilga ilm o'rganish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi. Abu ali tinmay mutolaa qilib, turli ilm sohalarini o'zlashtirishga kirishdi. U musiqa, optika, kimyo, fiqh kabi fanlarni o'qidi, xususan, tabobatni sevib o'rgandi va bu ilmda tez kamol topa boshladi.

I-bob. Ibn Sino- qomusiy olim.

1.1.Ibn Sinoning hayot va ijod yoli

Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida buxorolik boshqa bir tabib abu Mansur alHasan ibn Nuh al Qumriyning xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino undan tabobat darsni olib, bu ilmning ko'p sirlarini o'rgangan. Qumriy bu davrda ancha keksayib qolgan bo'lib, 999 yilda vafot etdi. Ibn Sino 17 yoshdayoq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanildi. O'sha kezlarda hukmdor Huh ibn Mansur betob bo'lib, saroy tabiblari uni davolashdan ojiz edilar. Dovrug'i butun shaharga yoyilgan yosh tabibni amirni davolash uchun saroyga taklif qiladilar. Uning muolajasidan bemor tezda sog'ayib, oyoqqa turadi. Evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Somoniylarning kutubxonasi o'sha davrda butun o'rta va yaqin sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Ibn Sino bir necha yil davomida shu kutubxonada kechayu kunduz mutolaa bilan mashg'ul bo'lib, o'z davrining eng o'qimishli, bilim doirasi keng kishilaridan biriga aylandi va shu paytdan boshlab o'rta asr falsafasini mustaqil o'rganishga kirishdi. U yunon mualliflarining, xususan, Aristotelning "Metafizika" asarini berilib mutolaa qildi. Lekin bu kitobda bayon qilinganlarning aksariyati Ibn Sinoga tushunarsiz edi. Tasodifan yosh olimning qo'liga abu Nasr Forobiyning "Metafizika"ning maqsadlari haqida"gi kitobi tushib qoladi va uni o'qib chiqibgina Ibn Sino metafizikani o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Shunday qilib, Ibn Sino zaruriy bilimlarning barchasini Buxoroda oldi. Olimning ilmiy ijodi 18 yoshidan boshlandi. U Nuh ibn Mansurga atab nafsoniy quvvatlar haqida risola, "Urjuza" tibbiy she'riy asari, o'z qo'shnisi va do'sti Abulhusayn Alaruziyning iltimosiga binoan, ko'p fanlarni o'z ichiga olgan "Alhikmat alaruziy" ("Aruziy hikmati") asarini ta'lif etdi. Undan tashqari, boshqa bir do'sti faqih abu Bakr Albarqiy (yoki Baraqiy) ning iltimosiga ko'ra, 20 jildli "Alhosil val mahsul" ("Yakun va natija") qomusiy asari hamda 2 jildli "Kitob albir valism" ("Sahovat va jinoyat kitobi")ni yozdi.

Qoraxoniylar 999 yil Buxoroni zabt etib, somoniylar davlatini ag'darganidan keyin Ibn Sino hayotida tashvishli, notinch va og'ir damlar boshlandi. 1002 yil uning otasi vafot qildi. Ikki sulola vakillarining taxt uchun kurashi 1005 yilgacha davom etib, oxiri qoraxoniylarning butkul g'alabasi bilan tugadi. Bunday vaziyatda Buxoroda ortiq qolib bo'lmas edi. Shu bois Ibn Sino o'z yurtini tark etib Xorazmga bosh olib ketdi. 11 asr boshlarida Xorazm Qoraxoniylar hujumidan birmuncha tinch bo'lib, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan o'lka edi. Xorazmshohlar Ali ibn Ma'mun (997—1009) va Ma'mun ibn Ma'mun (1009—1017) ilm-fanga e'tiborli hukmdorlar bo'lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib bergan edilar. Shu bois bu davrda Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch) da zamonasining ko'pgina taniqli olimlari to'plandi. Yirik matematik va astronom abu Nasr ibn Iroq, atoqli tabib va faylasuflar abu Saql Masihiy, Abulxayr Hammor (942—1030) va buyuk olim abu Rayhon Beruniy shular jumlasidan. Ana shu ilmiy davraga 1005 yil Ibn Sino ham kelib qo'shildi. Xorazmda Ibn Sino, asosan, matematika va astronomiya bilan shug'ullandi. Bu sohalardagi bilimlarining chuqurlashib, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ibn Iroq va Beruniy bilan bo'lgan ilmiy muloqotlar katta ahamiyat kasb etdi. Ibn Sinoning Aristotel ta'limoti xususida Beruniy bilan va o'zining shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari tarixda mashhurdir. Ibn Sino abu Saxl Masihiyning tibbiy tajribasi va bilimlaridan ham katta saboq oldi. Xorazmshoh vaziri Abulhusayn Assahliy ilmlarni sevuvchi kishi bo'lganidan, Ibn Sino u bilan do'stlashadi va unga atab alkimyoga oid "Risola aliksir" ("Iksir haqida risola") nomli asar yozdi. Biroq Xorazmdagi osoyishta hayot uzoqqa cho'zilmaydi. Sharqda qudrati ortib borayotgan G'azna hukmdori sulton Mahmud G'aznaviy bu o'lkaga ko'z tikadi. U, avval, Ma'munga saroydagi bir guruh olimlarini G'aznaga jo'natib yuborishni so'rab xat yozadi. Bu xatga javoban Beruniy va Abulhammor G'aznaga ketadilar. Ibn Sino esa bu taklifni rad etib, Masihiy bilan birgalikda 1010—1011 yil larda yashirinchalik Xorazmni tark etadi. Shu vaqtdan olimning sargardonlik yillari boshlanib, umrining

oxirigacha vatandan uzoqda hayot kechirishga majbur bo'ladi. Masihiy bilan Ibn Sino Jurjonga — masihiyning vataniga yo'l oldilar. Lekin yo'ldagi qiyinchiliklar va suvsizlik tufayli masihiy betob bo'lib, vafot etadi. Natijada, Ibn Sino azob-uqubatlar chekib, avval, Niso, so'ng Obivard, Tus va Hurosonning boshqa shaharlarida qisqa muddat turganidan keyin, nihoyat, Kaspiy dengizining janubiy-sharqida joylashgan Jurjon amirligiga yetib keladi. Ibn Sino Jurjonda 1012—1014 yillarda yashaydi, lekin shu qisqa vaqt ichida uning hayotidagi muhim voqealardan biri — abu Ubayd Juzjoniylar bilan uchrashuv va bir umrga do'stlashuv sodir bo'ladi. U Ibn Sinoga nafaqat shogird, balki sodiq do'st ham edi. U Ibn Sino bilan olimning so'nggi damigacha, 25 yil davomida birga bo'ladi. Ibn Sino tarjimai holining yozilib qolishi, ko'pgina asarlarining ta'lifi va tartibga tushishi hamda ularning keyingi avlodlarga kelishida Juzjoniylarning xizmati katta.

1.2.Mutafakkirning ilmiy asarlari ko'lami.

Jurjondalik vaqtida Ibn Sino ham ilmiy ijod bilan shug'ullandi, ham tabib sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu yerda u shogirdining iltimosiga ko'ra, mantiq, falsafa va boshqa fanlarga oid bir nechta risola yozdi va eng muhimi "Tib qonunlari"ning dastlabki qismlarini yaratdi. 1014 yil olim Jurjonni tark etib, Rayga ko'chdi. Ibn Sino Rayga kelgan vaqtida bu yerda buvayhiylardan bo'lmish Majduddavla abu Tolib Rustam (997—1029) va uning onasi Sayyida xotun hukmronlik qilar edilar. Bu yerda Ibn Sino savdoyi dardiga chalinib qolgan Majduddavlani davoladi va shu sababli saltanat tepasida turgan Sayyidaning hurmat-ehtiromiga sazovor bo'ldi. Lekin olim Rayda ham uzoq turolmadi, chunki sulton Mahmud G'aznaviylarning Rayga ham hujum qilish xavfi bor edi. Shu bois Ibn Sino Rayni tark etib, nisbatan kuchliroq, bo'lgan Hamadonga, Majduddavlaning akasi Shamsuddavla (997— 1021) huzuriga ketadi. Hukmdorni sanchiq kasalidan davolaganidan keyin olimni saroyga taklif qiladilar. U avval saroy tabibi bo'lib ishlaydi, so'ng vazirlik mansabiga ko'tariladi. Davlat ishlari

bilan band bo'lishiga qaramay ilmiy ishlarini ham davom ettiradi va qator asarlar yaratadi. "Tib qonunlari"ning 1kitobini tugatib, o'zining mashhur falsafiy qomusi — "Kitob ashshifo" ni ham shu yerda yozishga kirishadi. "Tib qonunlari" ning qolgan qismini ham Hamadonda yozib bitiradi.

Ibn Sino Hamadonda 1023 yilgacha istiqomat qiladi va ayrim siyosiy sabablarga ko'ra, shu yili Isfahonga jo'nab ketadi. Umrining qolgan 14 yilini shu yerda o'tkazdi. Bu yerda ham u tinimsiz ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lib, bir qancha asarlar yaratdi. Ular orasida tib, falsafa, aniq fanlar, tilshunoslik kabi fanlarga oid kitoblar bor. "Kitob ashshifo" ning qismlari, fors tilidagi "Donishnoma" va 20 jildli "Insof-adolat kitobi" shular jumlasidan.

Juzjoniyning yozishicha, Ibn Sino garchi, jismoniy juda baquvvat bo'lsada, biroq, shaharma shahar darbadarlikda yurish, kecha kunduz tinim bilmay ishlash va bir necha bor ta'qib qilinib, hatto hibsda yotishlar olimning salomatligiga jiddiy ta'sir etdi. U qulanj (kolit) kasalligiga chalindi. Alouddavlaning Hamadonga yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betobligiga qaramay, u bilan birga safarga chiqadi. Yo'lda dardi qo'zg'ab olimning tamomila madori quriydi va oqibatda u shu darddan 57 yoshida vafot etadi. Olim Hamadonda dafn etiladi. Uning qabri ustiga 1952 yil maqbara ishlangan (me'mori Sayxun). Maqbara Ibn Sinoga bag'ishlangan muzey xonalarini ham o'z ichiga oladi.

Zamondoshlari Ibn Sino ni "Shayx arrais" ("Donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i"); "Sharaf almulk" ("o'lka, mamlakatning obro'si, sharafi"), "Hujjat alhaqq" ("rostlikka dalil"); "Hakim alvazir" ("donishmand, tadbirkor vazir") deb ataganlar. Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o'z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Olim asarlarini o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy tili bo'lgan arab tilida, ba'zilar (she'riy va ayrim falsafiy asarlari)ni fors tilida yozgan. Turli manbalarda

uning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan, lekin bizgacha ularning 242 (160) tasi yetib kelgan. Shulardan 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga oid bo'lib, qolganlari mantiq, psixologiya, tabiiyot, astronomiya, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslikka bag'ishlangan. Lekin bu asarlarning hammasi ham olimlar tomonidan bir xilda o'rganilgan emas. Ibn Sinoning ko'proq falsafa va tibga oid kitoblari jahonning ko'pgina tillariga tarjima etilib, asrlar davomida qayta-qayta nashr qilib kelinmoqda, lekin shu bilan bir vaqtda, boshqa ko'p asarlari hali qo'lyozma holida o'z tadqiqotchilarini kutyapti.

Ibn Sino ning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya'ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo'lish mumkin, olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Lekin Ibn Sino asarlarining miqdoriy nisbatiga nazar solsak, olimning qiziqish va e'tibori ko'proq falsafa va tibga qaratilganini ko'ramiz. Garchi, uni "Avitsenna" sifatida g'arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, "Tib qonunlari" bo'lsada, "Shayharrais" nomi, eng avval, uning buyuk faylasufligiga ishoradir.

Olimning falsafaga oid eng yirik va muhim asari "Kitob ashshifo" dir. U 4 qismdan iborat: 1) mantiq — 9 bo'lakka bo'lingan: almadhal — mantiqqa kirish; almaqulot — kategoriyalar; aliborat — interpretatsiya; alqiyos — sillogizm; alburhon — isbot, dalil; aljadal — tortishuv, dialektika; assafsata — sofistika; alxitoba — ritorika; ashshe'r — poetika (she'r san'ati); 2) tabiiyot (bu yerda minerallar, o'simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo'limlarda gapiriladi; 3) riyoziyot — 4 fanga bo'lingan; hisob (arifmetika), handasa (geometriya), astronomiya va musiqa; 4) metafizika yoki ilohiyot. Bu asarning ayrim qismlari lotin, suryoniy, ibroniy, nemis, ingliz, fransuz, rus, fors va o'zbek tillarida nashr etilgan.

Ibn Sino ning yana bir falsafiy asari "Kitob annajot" "Kitob ashshifo" ning qisqartirilgan shakli bo'lib, u ham qisman jaqonning bir necha tillariga tarjima

qilingan. Olimning falsafiy qarashlari yana "Alishorat vattanbihot" ("Ishoralar va tanbihlar"), "Hikmat almashriqiyn" ("Sharqchilar falsafasi"), "Kitob alishorat filmantiq va lhikmat" (" mantiq va falsafaning ishoralari"), fors tilida yozilgan "Donishnoma" ("Bilim kitobi") va b. Turli hajmdagi falsafiy risolalarda hamda "Tayr qissasi", "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon", "Yusuf haqida qissa" kabi falsafiy mazmunli badiiy qissalarda o'z aksini topgan. Ibn Sinoning dunyoqarashi Aristotel ta'limoti va Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, birbiriga o'tishini zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o'rganishdan iborat. Olamda mavjud barcha narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud eng irodali, qudratli, dono tangridir. Qolgan narsalar imkoniyat tarzida mavjud bo'lib, tangridan kelib chiqadi. Zaruriy vujud bilan imkoniy vujud munosabati sabab va oqibat munosabatidir. Bu jarayonda olamdagi hamma narsalar emanatsiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklida mavjud bo'lgan aql, jon, jism, ular bilan bog'liq osmon sferalari kelib chiqadi. Bular hammasi substansiya (javhar) bo'lib, yana borliqda aksidensiya — narsalarning belgilari, rangi, hajmi, xillari mavjud. Jism shakl va moddadan tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo'lmish materiya ham abadiydir. Uning o'zi boshqa tayin jismlarning asosidir. Narsalarning moddiy asosi hech qachon yo'qolmaydi. Materiyaning eng sodda bo'linmas shakli 4 unsur: havo, olov, suv, tuproqdan iborat. Ularning turlicha o'zaro birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar shaklan o'zgarishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo'lgan 4 unsur yo'qolmaydi, abadiy saqlanadi. Ibn Sino fikricha, avval tog'-toshlar, so'ng o'simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida boshqa jonzotlardan aqli, tafakkur qilish qobiliyati va tili bilan farq qiluvchi inson vujudga kelgan. Hodisalarni chuqur bilish, fan bilan shug'ullanish insongagina xosdir. Inson

bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashkil topadi. Sezgida narsahodisalarning ayrim, tashqi belgilari, tayin tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatini, ichki tomonlarini abstraksiyalashtirish va umumlashtirish yordamida bila oladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Ibn Sino tushunchasida bilimlarni chuqur o'rganish orqali xudoni bilish mumkin degan fikr yotadi. U mavjud bilimlarni egallagan insongina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunadi. Ibn Sino mantiqni ilmiy bilishning , mavjudotni o'rganishning ilmiy usuli deb biladi. "mantiq, — deb yozadi Ibn Sino — insonga shunday bir kuchda beradiki, bu kuch yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi". U mantiqiy usullar, ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini chuqur o'rgandi, mantiq fanini Forobiydan so'ng bilishning to'g'ri metodi sifatida rivojlantirdi.

Ibn Sino o'z davridagi tabiiy fanlarning rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan olimdir. Uning tabiiy-ilmiy qarashlari "Kitob ashshifo" ning tabiiy fanlarga oid qismida bayon qilingan. Olimning ba'zi geologik jarayonlarga oid mulohazalari hozirgi ilmiy nazariyalarga juda yaqindir. Uningcha, vulqonlar aslida tog' paydo bo'lishi va zilzilalar bilan bog'liq. Tog' paydo bo'lishining o'zi esa 2 yo'l bilan bo'ladi: 1) kuchli yer qimirlashi vaqtida yer qobig'ining ko'tarilishi; 2) suv orqali va havoning asta-sekin ta'siri natijasida chuqur jarliklar paydo bo'lib, natijada ularning yonida balandlik hosil bo'lib qolishi. Zilzilaning paydo bo'lishiga ham bir necha sabablar bor. Ularning biri gazsimon yo olovsimon bug' bo'ladi. Mana shu bug' harakatga kelib, yerni qimirlatadi. Suvlarning yer ostiga sizib kirishi, tekis yer chetining o'pirilishi, ba'zida tog' cho'qqilarining kuch bilan qulashi ham zilzilaga sabab bo'ladi. Olim fikricha, yer yuzasining ma'lum qismi bir mahallar dengiz tubi bo'lgan, zamon o'tishi bilan geologik jarayon oqibatida suv xavzalari o'rni o'zgargan. Bir vaqtlar dengiz bo'lib, hozir quruqlikka aylangan yerlarda dengiz hayvonlarining

toshqotgan qoldiqlari saqlanib qolgan. U bunday yerlarga Kufa, Misr va Xorazm yerlarini kiritadi.

Ibn Sino mineralogiya (ma'danshunoslik) sohasida ham salmoqli ishlar qilgan. U minerallarning original tasnifini taklif etdi. Unga ko'ra, barcha ma'danlar 4 guruhga: toshlar, eriydigan jismlar (metallar), oltingugurtli yonuvchi birikmalar va tuzlarga bo'linadi. Bu tasnif to 19asrgacha deyarli o'zgarishsiz saqlanib keldi. Ibn Sinoning geologiya va mineralogiyaga oid fikrlari uning "Alaf'ol valinfiolot" ("Ta'sir va ta'sirlanish") asarida ham uchraydi.

Ibn Sino boshqa tabiiy fanlar qatori kimyo bilan ham shug'ullangan va unga oid asarlar ham yozgan. Bu asarlarini u turli davrda yozgan bo'lgani uchun ularda Ibn Sinoning kimyoga bo'lgan munosabatining evolyusion o'zgarib borishi yaqqol aks etgan. Uning kimyo sohasida aytgan fikrlari o'sha davrdagi alkimyo uchun nihoyatda ilg'or edi. Ibn Sino 21 yoshida, ya'ni ilmiy faoliyatining bo'sag'asida metallar transmutatsiyasiga, ya'ni oddiy metallarni oltin va kumushga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishongan va mutaqaddim kimyogarlarning kitoblari ta'siri ostida "Risola assan'a ilalbaraqiy" ("Baraqiyga atab san'at (alkimyo) ga doir risola") nomli kichik asar yozgan. Lekin 30 yoshlarga borib, ilmiy tajribasi ortgan yosh olim bu sohadagi urinishlarning zoye ketishiga amalda ishonch hosil qiladi va "Risola aliksir" ("Iksir haqida risola") asarida kimyoviy yo'l bilan sof oltin va kumush olish mumkinligiga shubha bildiradi. 40 yoshlarda yozishga kirishgan "Kitob ashshifo" da esa kimyogarlarning transmutatsiya sohasidagi barcha harakatlari behuda ekanligini nazariy jihatdan isbotlashga urindi. Uning fikricha, o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan har bir metall o'zicha alohida bir modda bo'lib, kimyogarlar o'ylagandek bir yagona metallning turi emas. U oltinning alohida bir elementligini bilmasada, uni narsalardan yasab bo'lmasligini ham anglagan edi. Olimning bu nazariy mulohazalari o'rta asr kimyosining ilmiy kimyoga o'sib o'tishida muhim rol o'ynadi.

Ibn Sino botanika masalalaribnham juda ko'p shug'ullandi, chunki tabobatda ishlatiladigan dorivor moddalarning aksariyati o'simliklardan olinadi. U "Kitob ashshifo" ning "annabot" ("O'simliklar") qismida o'simliklarning turlari, paydo bo'lishi, oziqlanishi, o'simlik a'zolari va ularning vazifalari, ko'payishi hamda o'sish sharoitlari haqida yozadi, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ham ish olib boradi.

Ibn Sino yoshligidan astronomiyaga qiziqqan va bu qiziqish umrining oxirigacha saqlangan. U 8 ta mustaqil risola hamda "Kitob ashshifo" va "Donishnoma" ning riyoziyot qismlarida astronomiyaga alohida boblarni bag'ishlagan. Ptolemeyning "Almagest" ini qayta ishlab, shuning asosida amaliy astronomiya bo'yicha qo'llanma yaratgan. Ibn Sino Jurjon shahrining geografik uzunligini o'z davri uchun butunlay yangi bo'lgan usul — oyning eng baland nuqtasini kuzatish orqali aniqlab bergan. Beruniy "Geodeziya" asarida bu usulning to'g'riligi haqida gapirib, uni faqat Ibn Sino nomi bilan bog'laydi. Bu usul Yevropada 500 yil dan keyin (1514 yil) astronom Verner tomonidan yangidan kashf qilindi.

Matematika sohasida Ibn Sino Yevklidning "Negizlar" kitobini qayta ishlab, unga sharh va to'ldirishlar kiritdi, geometrik o'lchamlarga arifmetik terminologiya qo'lladi, "Son" tushunchasi doirasini "Natural son" dan ancha kengaytirdi.

2-bob. Ibn Sinoning badiiyatga munosabati.

2.1. Ibn Sino ijodida an'ana va novatorlik.

She'riyat sohasida ham Ibn Sino sezilarli iz qoldirdi. U o'zining ayrim tibbiy asarlari ("Urjuza") ni rajaz vaznli she'rda yozgan. Bundan tashqari, uning bir nechta falsafiy qissalari ham borki, ular keyinchalik fors-tojik adabiyotiga chuqur ta'sir

ko'rsatdi. Olimning fors tilida yozgan bir necha g'azal va qit'alari, 40 dan ortiq ruboiylari mavjud. Uning she'riy merosi qisman rus va o'zbek tillarida nashr etilgan.

Ibn Sino musiqa bobida Forobiy ilmiy yo'nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Musiqa haqidagi "Javome' ilm ul-musiqiy" ("musiqa ilmiga oid to'plam") asari "Kitob ashshifo" ning bir qismi bo'lib, har biri bir necha bobli 6 bo'limdan iborat. "Annajot", "Donishnoma"larda musiqa haqida kichik bo'limlar mavjud, "Tib qonunlari", "Risolai ishq" va boshqa musiqaning ayrim masalalari haqida fikr yuritgan. O'z davri musiqasining barcha muammolarini bayon etgan: nag'ma, bo'd (interval), lad tizimlari, iyqo, kuy yaratish, musiqa asboblari va h. k Yevropada keyinchalik "sof tizma (tovushqator)" atalgan musiqaviy tuzilmani birinchi bo'lib asoslagan. Ibn Sino musiqiy go'zallik haqida mukammal ta'limotni ilgari surib, musiqani hamohanglikning eng kamolga yetgan turi deb biladi. Ritm masalalariga sharqning boshqa musiqa nazariyotchilari singari aruz badiiy tizim bilan bog'liq holda qaraydi. Tabib sifatida u musiqani muhim tibbiy vositalar jumlasiga kiritgan. Inson nutqiy ohanglari rivojlanishi natijasida musiqa paydo bo'lganligi haqidagi nazariyasi hozirgi zamonaviy musiqa nazariyalariga mos keladi. O'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida musiqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan.

Ibn Sino ning tabobat da qilgan ishlari uning nomini bir necha asrlarga shu fan sohasi bilan chambarchas bog'ladi. Olimning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o'zigacha o'tgan turli xalq namoyandalari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to'plangan ma'lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga soldi va ularni o'z tajribalari bilan boyitgan holda ma'lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirdi. Bunga uning "Tib qonunlari" va bu asarning jahon tib ilmi tarixida tutgan mavqei va qozongan shuhrati yorqin dalildir. Ibn Sino ning tabobat sohasida qilgan ishlari o'sha davr tabobatini bir necha asrlarga ilgarilatdi va ayrim sohalarda hatto hozirgi zamon tibbiyotiga yaqinlashtirdi ham. Olim yashagan davrda bu sohada

antik olimlarning , xususan Gippokrat, Galen, Dioskorid va boshqalarning ta'limoti ustuvor edi. Ibn Sino ham o'z tibbiy faoliyatida ularning nazariy qarashlari va amaliy ko'rsatmalariga tayandi, lekin ularni Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo, Sharq olimlarining hamda o'z tajribalari va bilimlari asosida rivojlantirdi va boyitdi. Ibn Sino ning daho tabib sifatida shuhrat qozonishining asosiy omillaridan biri — uning tib nazariyasini, xususan, anatomiya — inson gavdasi tuzilishini mukammal bilishligidir. Bosh suyagining tuzilishi, tishlarning tuzilishi to'g'risida u Galenga ergashgan holda to'g'ri fikrlagan. Uning ko'zning anatomiyasi, ko'rish jarayonining qanday sodir bo'lishi va unda ko'z qorachig'ining roli, ko'z muskullarining joylashishi xususida yozganlari zamonaviy oftalmologiyaga yaqindir. Asablar, qon tomirlar, mushaklarning tuzilishi va funksiyalari to'g'risida yozganlari anatomiyaning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa amaliy anatomiyaning asoschisi deb tan olingan rus olimi n. I. Pirogovni Ibn Sinoning izdoshi deyishga asos beradi. Ibn Sino o'tkir diagnost edi. Uning ba'zi tashxis usullari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Perkussiya (a'zoga urish orqali diagnoz qo'yish)ni, xususan, assit va meteorizmni farqlashda, istisqoni aniqlashda (qoringa sekin urish orqali) qo'llagan. Bu usul 600 yildan keyin venalik tabib Leopold Auenbrugger (1722—1809) tomonidan qayta kashf qilinib, yana 50 yildan so'ng amaliyotga kirgan. Olim qon tuflash holatlari va nafas olish turlarini chuqur o'rganib, ulardan tashhisda foydalangan. Ibn Sino turli kasalliklarning differensial diagnostikasida va gavdaning umumiy holatini aniqlashda tomir urishi, siydik va najasga qarab olinadigan belgilarga katta e'tibor beradi. Mas, diabet (qand) kasalligini u siydikning holati, shu jumladan, undagi shirinlik moddasiga qarab tashxis qiladi. Diabet kasalligida siydikda qand moddasi bo'lishini 1775 yil da ingliz olimi Dobson aniqlagan. Tabobat tarixida birinchi bo'lib Ibn Sino vabo bilan o'latni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlash kerakligini ta'kidlagan, meningit, oshqozon yarasi, sariq kasalligi, plevrit, moxov, zaxm, qizamiq, suvchechak, kuydirgi kabi kasalliklarning belgilari va kechish

jarayonini to'g'ri tasvirlab bergan. Quturish kasalligining ko'rinishlari, uning yuqumli harakteri, bemorning bu kasallikdagi holatlarini juda to'g'ri aniqlagan. 1804 yil da yevropalik olim Sinke quturgan hayvonlarning so'lagi yuqumliligini tasdiqlagan. Psixik va asab kasalliklarini tavsiflash va davolashga ham olim ko'p yangiliklarni kiritgan. Bu kasalliklarni davolashda u atrof muhitning , iqlimning , parhez va jismoniy mashqlarning ta'siriga hamda bemor kayfiyatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarga katta ahamiyat beradi.

Bemorlarni davolashda olim 3 narsaga — tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo'llash (qon olish, banka qo'yish, zuluk solish, huqna va h. k.) ga ahamiyat berish kerakligini aytadi. Kasallikni davolashda ovqatlanish, ya'ni parhezni muhim omillardan deb hisoblaydi va har bir kasallik uchun o'z ovqatlanish tartibini beradi. Chunonchi, jigar kasalliklarida ko'proq mayiz, anjir, anor suvi iste'mol qilishni buyuradi. Bu esa bunday kasalliklarni hozirgi glyukoza va insulin bilan davolash usullarining qadimiy ko'rinishidir. Ibn Sino ning jarrohlik sohasini rivojlantirishdagi xizmatlari ham ulkandir. U o'z tibbiy asarlarida zamonaviy jarrohlikda qo'llanib kelayotgan ayrim usullarni bayon qiladi. Yiringli shishlarni kuydirish yoki pichoq bilan yorish, bavo'sir shishlarini tikish, tampon, o'tkir modda yoki tikish bilan qon to'xtatish, tomoqni kesib, nay qo'yish (traxeotomiya) shular jumlasidandir. Yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolash usuli hozirgacha "avitsenna usuli" deb ataladi. Umurtqaning qiyshayishini Ibn Sino o'zi ixtiro qilgan yog'och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni 15 asrda fransuz tabibi Kalo qayta kashf etgan. Suyaklarni gipslash usuli ham Ibn Sino tomonidan keng qo'llangan, lekin u ham keyinchalik unutilib, yevropalik tabiblar tomonidan 1852 yil da amaliyotga yangi ixtiro sifatida qaytarilgan. Hozirda ko'z jarrohligida qo'llanayotgan usullarning qariyb barchasi Ibn Sino ga ma'lum bo'lgan. Yomon sifatli saraton (rak) shishlari, qovuq toshlarini olish, istiskr, bavo'sirning operatsiyalari,

bosh suyagining operatsiyasi va b. Ibn Sino qo'llagan muolaja usullaridandir. Jarrohlikda anesteziya (og'riqni sezdirmaslik) masalasiga ham Ibn Sino katta e'tibor bergan. Buning uchun u afyun, mingdevona, nasha va shu kabilar narkotik ta'sirga ega bo'lgan dorilardan foydalangan. Kasallikni davolashda Ibn Sino shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan. Uning bir kasallikni boshqa bir kasallikni chaqirish yo'li bilan davolash usuli diqqatga sazovordir. Masalan, u tutqanoqni davolashda to'rt kunlik isitma bilan og'rishni foydali deb biladi. Avstriyalik psixiatr Yu. Vagneryaureg (1857—1940) shunday usulni qo'llab, zaxm kasalligini bezgakni yuqtirish orqali davolagani uchun 1927 yil da Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Ibn Sino dorishunoslik sohasida chuqur tadqiqotlar olib borgan. U antik olimlarning farmatsiyasi asosida musulmon sharqida paydo bo'lgan yangi farmatsiyaning shakllanishiga yakun yasadi. Tabobatda sano, kofur (kamfara), rovoch, tamrhindiy (hind hurmosi) kabi dorilarning ishlatilishi, asal o'rnida ko'p dorilarning qand (shakar) asosida tayyorlanishi ham Ibn Sino ning xizmatidir. Uning dorivor o'simliklarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozirgi dorishunoslikdagi usullarga juda yaqindir. Tabiiy dorilar bilan bir qatorda Ibn Sino birinchilardan bo'lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ham ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval sodda, so'ng murakkab tarkibli dori bilan davolagan. Eng muhimi, u oziq ovqatlarning shifobaxsh ta'siriga katta ahamiyat berib, davolashni shunday mahsulotlardan (meva, sabzavot, sut, go'sht va h. K.) boshlagan. Dori tayinlashda bemorning mijozi (issiq, sovuq, ho'l, quruq), yoshi, iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sino farmatsiyasi juda puxta o'ylangan farmakologik tadqiqot usuliga asoslanganligi bois o'rta asr yevropa farmatsiyasidan ancha o'zib ketdi va zamonaviy dorishunoslikka yaqinlashdi. Olim ishlatgan dorilarning bir qanchasi hozirgi farmakopeyalardan mustahkam o'rin olgan.

Ibn Sino ning tibga oid yozgan asarlarining 30 dan ortig'i bizgacha yetib kelgan, ularning orasida "Qonun" kabi tibbiy ensiklopediya bilan bir qatorda tibning ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan turli hajmdagi "Urjuza fit-tib" ("Tibbiy urjuza"), "Aladviyat alqalbiya" ("Yurak dorilari"), "Daf' almadorr alkulliyya analabdon alinsoniya" ("Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo'qotish"), "Kitob alqulanj" ("Qulanj haqidagi kitob"), "Maqola finnabz" ("Tomir urishi haqida makrla"), "Risola filboh" ("Shahvoniy quvvat haqida risola"), "Risola fi tadbiri almusofirin" ("Safardagilarning tadbiri haqida risola"), "Risola fi xifz assihha" ("Sog'liqni saqlash haqida risola"), "Risola fis sikanjubin" ("Sikanjubin haqida risola"), "Risola filfasd" ("Qon olish haqida r.isola"), "Risola filhindabo" ("sachratqi haqida risola") kabi risolalar ham bor.

Ibn Sino o'z davridagi ilmlar tasnifi masalasiga ham jiddiy e'tibor bilan qaradi va bu sohada "Aqsom alulum alaqliya" ("Aqliy ilmlar tasnifi") nomli asar yozdi. Unda olim aqliy ilmlarni hikmat — falsafa ilmlari deb olib, ularni nazariy va amaliy qismlarga bo'ldi. Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan. Nazariy falsafa 3 ga bo'linadi: 1) quyi darajadagi ilm, ya'ni tabiatshunoslik (tib, kimyo, astrologiya va b.); 2) o'rta darajadagi ilm — matematika. (geometriya, arifmetika, astronomiya, musiqa); 3) oliy darajadagi ilm — metafizika (ilohiyot). Amaliy falsafa ham uch tur (axloq, iqtisod va siyosat) ga bo'linib, birinchisida bitta shaxs, uning fe'latvori qanday bo'lishi haqida; ikkinchisida insonlarning oilada, xo'jalik ishlarida bir-biri bilan munosabatlari qanday bo'lishi va uchinchisida shahar yoki o'lka miqyosida kishilarning bir-biri bilan munosabati qanday bo'lishi, davlatni idora qilish haqida gap boradi. Bu turkumlar ham mayda tarmoqlarga bo'linib ketadi. Asarda 29 ilm tarmog'i tilga olinadi, Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Jamiyat

kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini aytadi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi lozim. Agar hokim podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab quvvatlanmog'i kerak, deb hisoblaydi. O'zining axloq to'g'risidagi fikrlarida insonlarning kundalik ishlaridagi eng zarur axloqiy munosabatlarga, kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to'g'rilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e'tibor beradi.

Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr sharq va g'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoni, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, Attaftazoniy, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o'z asarlarida ilm sohasidagi ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirdilar. Yevropada allomaning asarlari 12 asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, untlarda o'qitila boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert Fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sinoning ilg'or fikrlaridan o'z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo'r hurmat bilan tilga oldilar.

Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O'zbekistonda maxsus ilmiy yo'nalish — Sinoshunoslik vujudga keldi. "Tib qonunlari" ning lotincha tarjimasi to'liq hodda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshq sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tillarida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi. Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi, shu jumladan, O'zbekiston FA Abu

Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutda ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud. Yevropa olimlari Ye. Bishmann, Yu. Ruska Karra de Vo, X. Korbin, Kruz Xernandez, I. Garde, A. M. Guashon, X. Ley, P. Morividj, J. Saliba hamda arab, turk va eron olimlari U. Najotiy, N. Nodir, Sh. Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E. Ihsono'g'lu, F. Rahmon, M. Muso, H. G'araba, M. Shohvardiy va boshqalar Ibn Sino ijodini o'rganishga ma'lum hissa qo'shdilar. Rossiyalik olimlardan Ye. E. Bertels, Ya. Borisov, Braginskiy, I. Grigoryan, A. Petrov, A. Rozenfeld, N. Ternovskiy, V. Sagadeyev, M. Rojanskaya, tojikiston olimlaridan S. Ayniy, M. Dinorshoyev, T. Mardonov, N. Rahmatullayev, A. Bahovuddinov, Yu. Nuraliyev bu yo'nalishning rivojlanishiga xizmat qildilar. O'zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U. I. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, A. A. Semyonov, M. A. Salye, P. G. Bo'lgakov, Sh. Shoislomov, E. Talabov, H. Hikmatullayevlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar. T. N. Qoriniyoziy, I. M. Mo'minov, M. M. Xayrullayev, M. N. Boltayev, A. Axmedov, G. P. Matviyevskaya, V. K. Jumayev, N. Majidov, O. F. Fayzullayev, M. B. Baratovning monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqiq etilgan. Rus antropologi M. M. Gerasimov, bir necha tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sino ning ham kalla suyagi asosida haykalportretini yaratgan. Andijon tibbiyot intituti xodimlari Yu. O. Otabekov, Sh. H.hamidullin, Ye. S. Sokolovalar Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini haykalbyustda tasvirladilar (1965). O'zbekistonlik rassom S. Marfin Ibn Sino badiiy portretini ishlagan (1968). Ibn Sino haqida "O'zbekfilm" studiyasi ijodkorlari (rej. E. Eshmuhamedov; O. Agishev, E. Eshmuhamedov ssenariysi) "Dahoning yoshligi" tarixiy-biografik badiiy filmini (1984) yaratdilar.

O'simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan mashhur shved botanigi Karl Linney (1707—78) doimo yashil bo'lib turuvchi bir tropik daraxtni Ibn Sino sharafiga

avitsennia deb atadi. O'zbekiston yerida topilgan (1956) yangi mineral Ibn Sino nomi bilan avitsennit deb ataladi. Buxoro shahri va Afshona qishlog'ida Ibn Sinoga haykal o'rnatildi, belgiyaning Kortreyk shahrida ham Ibn Sinoga qo'yilgan (2000 -yil) haykal bor. Afshonada Ibn Sino muzeyi ochildi. O'zbekiston va Tojikistondagi tibbiy oliy va o'rta bilim yurtlariga, nashriyotga, sanatoriy, shifoxona, kutubxona, maktab, ko'cha, jamoa xo'jaliklari, turar joy mavzellariga Ibn Sino nomi berildi. Tojikistonda fan sohasida katta yutuqlarni taqdirlash uchun Ibn Sino nomidagi Respublika Davlat mukofoti ta'sis etilgan. O'zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg'armasi tuzildi (1999 yil), "Ibn Sino" va "Sino" nomli xalqaro jurnallar nashr qilinadi.

2.2. Ibn Sino asalarida badiiy tasvir

Buyuk qomusiy olim, o'z davridagi mavjud fanlarning hammasida chuqur iz qoldirgan mashhur olim Abu Ali ibn Sinoning ijodiy faoliyati juda xilma-xil va rang-barangdir. U birinchi navbatda dunyoda buyuk tabib sifatida mashhur bo'lishi bilan birga olimlar nazarida buyuk faylasuf sifatida ham hurmatlidir. Ibn Sino nomini dastlab butun dunyoga taratgan va uni abadiylashtirgan asarlari uning inson uchun birinchi navbatda amaliy jihatdan zarur bo'lgan tibbiy asarlaridir.

Lekin Ibn Sino mashhur tabibgina bo'lib qolmagan edi, u o'z davrining buyuk mutafakkiri, keyingi asrlar fani va adabiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsata olgan buyuk siymo ham edi. Uning medicina, biologiya, geologiya va boshqa anik, fanlar sohasidagi asarlari hamda falsafa va adabiyot bobidagi katta xizmatlari uni haqli ravishda jahon fani va madaniyatining ajoyib namoyandasi darajasiga ko'targan edi. Uning falsafiy va estetik g'oya hamda qarashlari esa jahon madaniyati erishgan zo'r ilmiy va nazariy yutuqlar qatoriga kirgan edi. Haqiqatan ham olim ijodida fan va adabiyot uzviy ravishda birlashib ketib, o'zining barakali mahsulini bergan edi.

Ibn Sino ijodidagi ajoyib xususiyatlardan biri shuki, u o'z asarlarida davrining juda ko'p ilg'or g'oyalarini barkamol aks ettira oldi. Garchi uning o'zi ba'zi falsafiy masalalarda idealist bo'lib, ko'pgina ilg'or fikrlari diniy idealistik qobiqda berilgan bo'lsada, olim aytmoq-chi bo'lgan asosiy fikr va maqsadlar o'z davriga nisbatan ancha ilg'or edi. Bu uning ko'p masalalarda asosli fikrlar aytganidan darak beradi.

Darhaqiqat, Abu Ali ibn Sino haqiqiy insonparvar kishi sifatida inson aqlining har tomonlama rivojlanishiga, tabiat sirlari va haqiqatni bilish mumkinligiga qattiq ishongan edi. Ana shuning uchun ham olim odamlarni bir-biri bilan do'st-inoq bo'lib yashashga, kishilarni tubanlikka olib boradigan adovat o'chog'ini buzishga, birodarona ahil, hamjihat turmush kechirishga chaqiradi. Odamlar shu xilda sofdil va samimiy bo'lsa, bir-biri bilan do'st-inoq bo'lib yashasa, bir yoqadan bosh chiqarsa, har qanday mushkullarning oson, har qanday qiyinchiliklarning bartaraf bo'lishga va haqiqat sirlarining ochilishi mumkinligiga qattiq ishonadi.

Ana shuning uchun ham olim odamlarga qarata xitob qiladi:

«Ey birodarlar! Bir-biringiz bilan samimiy do'st bo'lib, haqiqatni ochinglar. Har bir kishi o'z birodari uchun ko'nglidagi samimiylikdan to'sqinlik pardasini ochib tashlasin. Shunday qilinglarki, birodarlaringiz sizlardan o'zi bilmagan ba'zi narsalarni o'rgansin va yana boshqalari bo'lsa ba'zi narsalarni o'rganib, o'zini kamolotga etkazsin».

Ibn Sino chin ma'rifatparvar olim va adib edi. U insonlarni fan va madaniyat, bilim va ma'rifat o'chog'ini yoqishga, ilm yo'lida og'ishmay yuksaklik va kamolot sari intilishga, har bir masalaga ilmiy, aqliy yondashishga, rostgo'y, vijdonli bo'lishga, xullas insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o'zida mujassamlashtirishga va inson degan ulug' nomni yanada yuqori ko'tarishga chaqiradi.

Olim o'zi da'vat etgan yo'liga namuna o'laroq
o'z davridagi mavjud fan taraqqiyotining barcha
bosqichlarni mukammal egallaydi. Bu haqda u
shunday deydi:

Az qa'ri gili siyah to avji zuhal
Kardam hama mushkiloti getiro hal.
Berun jastam zi qaydi har makru xiyal
Har band kushuda shud, magar bandi ajal.

(Qora tuproq qa'ridin tortib to Zuhal (Saturn) cho'qqisigacha bo'lgan dunyoning hamma mushkul masalalarini hal qildim. Men har qanday makr va .hiyla tuzog'idan qutulib chiqa oldimu, lekin o'lim tugunini echa olmadim).

Ibn Sino o'z fikriga sodiq o'laroq fanning turli sohalarini chuqur egallagan, juda ko'p aniq fanlarning tarmoqlari jilovini o'z qo'liga ola bilgan, bu sohada katta-katta muvaffaqiyatlarga erishgan edi. SHunday bo'lsa-da, u o'z ilmini hali juda oz, hatto bilmaganlariga nisbatan hech narsa ham emas, dsb o'ylardi. Olim bu fikrini juda kamtarinlik bilan tubandagi ruboiyda bayon etgan edi:

Dar parda suxan namond ki ma'lum nashud,
Kam mond zi asrori ki mafhum nashud.
Dar ma'rifatat ki chu nek fikre kardam,
Ma'lumam shud ki hech ma'lum nashud.

(Menga ma'lum bo'lgan parda ichida gap qolmadi. Tushunilmagai sirlar ham oz qoldi. Ma'rifat yo'lida shunday yaxshi fikr yuritgan bo'lsam-da, hech narsa ma'lum bo'lmaganligi menga ayon bo'lib qoldi).

Lekin uning fanga, tabiat sirlarini bilishga bo'lgan intilishlari cheksiz edi. Ibn Sino butun faoliyatini haqiqatni bilishga qaratdi, u o'zining bu yo'ldagi intilishlarini quyidagi. satrlarda ifodaladi:

«Men oliy martabalarning eng cho'qqisiga chiqib, yuksalishni istaymai. Past martabalarga hech rozi bo'lmayman. Istagan bu darajamga yo erishaman, yoki o'lim meni yo'lga soladi».

Ibn Sino fanning juda ko'p, xilma-xil sohalariga qiziqqanini, ularni imkoni boricha bilishga intilganini aytadi, ayni vaqtda fanning ko'p tarmoqlari, ko'p sohaları hali o'z kamoliga etmaganidan afsuslanib kamtarlik bilan yozadi:

Andar dili man hazor xurshed bitoft

Oxir ba kamol zarrayi roh nayoft,

(Dilimda minglab quyosh charaqladi-yu, lekin oxirida ular o'z kamoliga zarracha yo'l topolmadi).

Ibn Sino odamlarni ilm-kamolotni egallash yo'lidagi qiyinchiliklardan cho'chimaslikka, dadil va sabot bilan odimlashga undaydi: «Odamlarning dadili,— deydi u,— kelajakdagi ishdan qo'rqmaydi. Eng qo'rqqoq kishigina o'z kamolotini oxiriga etkazmaydi».

Ibn Sino o'z faoliyatida diniy aqidaparastlarga, shuningdek johilligi haddidan oshib, o'zini olim deb, toat- ibodatdan nari bormaydigan hamda kimki bilim va san'at, fan va ma'rifat bilan shug'ullansa, uni qoralaydigan, dahriylikda ayblaydiganlarga qarshi murosasiz kurash olib boradi, ular ustidan istehzo bilan qattiq kuladi:

Bo in duse nodon ki chunin medonand,

Az xamq, ki donoyi jahon ononad,

Har bosh ki in jamoat az farti xariy

Har ki u naxarast, kofirash mehonand.

(Johilligi na ahmoqligi tufayli o'zini dunyoda dono deb biladigan bu ikki-uch nodon bilan munosabatda bo'lganida, sen o'zingni eshak deb hisobla, chunki dunyoda yashayotgan har bir kishi o'zini eshak deb hisoblamasa, eshakligi haddidan oshib ketgan bu jamoat uni kofirga chiqaradi).

Boshqa bir o'rinda u johillarni dunyoda hech narsani ko'ra olmaydigan ko'r bilan tenglashtiradi. «Quyosh ko'rlarga ko'rinmay berkinganidek,— deb yozadi Ibn Sino,— bu johillarga ham dunyoda to'g'ri yo'l bayroqlari ko'rinmay qoladi». Bu bilan Ibn Sino, bundaylar oldida gapirib ovora bo'lganidan ko'ra, ilmingni yashirib turganing durustroqdir, demoqchi bo'ladi. U ba'zi layoqatsiz kishilarning yuqori mansablarga minib olishi, ularning ruhsiz, hissiz ishlari haqida kuyinib yozar ekan. «Nuqul jonsiz narsalar yuqoriga ko'tarilishda davom etayapti. Ajabo, u ham jonsiz bo'lsa-yu, ham o'ssa.» — deydi.

Ibn Sino kishilarga otalarcha nasihat qilib, ularni doimo ehtiyot bo'lishga chaqiradi, ehtiyot bo'lmaslik esa yomon oqibatlariga olib borishi mumkinligini uqtiradi. U yozadi: «Siringni barchaga aytishdan ehtiyot bo'l, chunki aqlli bo'lish degan so'z — ehtiyotkor bo'lish degan so'zdir. Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir, barchaga oshkora qilsang, sen siringning asiri bo'lib qolasan».

Boshqa bir o'rinda Ibn Sino kishilarni ogohlantirib, ularni ilmsiz va diniy aqidalar mag'zavasiga botib qolgan kishilarga o'z fikrlarini aytavermasliklarini ta'kidlaydi.

«E og'aynim, sen ushbuni bilib ol! Men, bu «Ishoratlar»da senga haqiqat qaymoqlarini suzib berdim; latif so'zlarga hikmat luqmalarini quyib, og'zingga oshalatdim. Sen endi ularni bilib olib, uning qadriga etmaydigan, o'zi nodon, fanda bilim va uquvsiz, uquvga o'rganmagan, bi-rinchi ko'rishdayoq sen bilan jonajon do'stddek, qalin bo'lib ketadigan, lekin o'zi ma'rifatdan mahrum bo'lgan, kimki faylasufman desa, uni adashganlar qatoriga qo'shadiganlardan baxillarcha saqlan»¹.

Ma'lumki, o'rta asrlarda har kim ham diniy qobiqlardan tashqari chiqib, aqliy va ilmiy mulohazalarni ochiq-oydin yurita olmas edi, yuritganlar ham juda ehtiyotkorlik bilan, din va shariatga zid kelmaydigan qilib, diniy qobiqlarga o'rgan holatdagina elga yoya olar edi. Buni yaxshi anglab etgan, g'oyat ehtiyotkorlik

1. Ibn sino. Kitobul ishorat fil mantiq val hikmat. O'zbekiston CCR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti kitob fondi, inv. N- 2210. 13 bet

bilan ish ko'rgan Ibn Sinoning yozgan juda ko'p she'rlari va aytgan boshqa mulohazalari, hatto uning «Risolat ut Tayr» va «Hayy ibn YAqzon» nomli asarlari ham ana shunday yashirin ramz - ishoralar bilan sug'orilgan edi. SHu sababli ko'pchilik tek-shiruvchilar bu muammoni echolmasdan, mazkur asarlarga turlicha qarab kelar; olimni goh mistikaga, goh sufiylikka, goh ndealizmning boshqa turlariga aloqador qilib qo'yar edilar.

Bu o'rinda shuni aytish kerakki, Ibn Sino oddiy musulmon sifatida xudo borligiga ishonar edi. Lekin uning musulmonligi bu dunyoda odamlarning ishi faqat toat - ibodat qilish, ro'za tutish va Qur'on o'qishdangina iborat, deb biladigan qotma qiroatxonlarga tamomila zid edi. U fan va ma'rifat bayrog'ini baland ko'tarib chiqqan neshqadam mutafakkir bo'lgani uchun, musulmon kishi mavjud bilimlarni egallaganidagina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunar edi. Bu bilan Ibn

Sino din olimlarining, bu dunyoda faqat toat-ibodat bilan shug'ullanishi kerak, chunki bu dunyo omonat dunyo, degan bo'lmag'ur fikrlariga qarshi chiqadi. SHu sababdan ham ko'pgina din aqoyidchilari Ibn Sinoni Qur'onga nazira yozgan, deb kofirga chiqargan edilar.

Ibn Sino ularga qarshi mana bunday otashin satrlar yozgan edi:

Kufry chu match gazof na oson nabuvad,

Mahkamtar az imoni man imon nabunad.

Dar dahr chu man yakiy va on xam kofir

Pas dar hama dahr yak musulmon nabuvad.

(Meni kofir deb asossiz ayblash uncha oson emas, chunki dunyoda mening iymonimdan qattiqroq imonning o'zi topilmaydi. Dunyoda menga o'xshash kishi yakka-yagona bo'lsa-yu, u ham kofir bo'lsa, demak, endi butun dunyoda bitta ham musulmon yo'q ekan-da!)

Dushmanlar buyuk olimni kofir deb qoralabgina qo'yaqolmasdan, turli - tuman bahonalar va tuhmatlar bilan unga yopirilganlar. Bunday raqiblariga qarata ulug' mutafakkirning o'zi ham achchiq-achchiq so'zlar bilan ajoyib satrlar yozgan:

«Agar mening ulug'ligim ular qalbida bunchalik hayiqish naydo qilmaganida edi, ular meni ko'p kechirib o'tirmay, yomonlagan bo'lur edilar. Men sherdekman. Odatda, agar sherdan qo'rqilsa, unga yaqinlasha olmaydilar, uzoqdan unga chuqur qazibgina ushlaydilar, xolos. Itlar sherni ko'rganda qo'rqqanidan akillaydn. SHunga o'xshab, ular menga ko'zlarni o'qraytirib qaraydilar, chunki men ulug'lik talabida uxlamay, tonglar ottirdim, ular bo'lsa, ertalabgacha uxladilar. Ular menga nuqul adovat ko'zi bilan qarab keladilar. Agar ularning ko'zlari do'stlik nazari bo'lganida

edi, yomon deb yuradigan narsalarini yomonlamasdan, yaxshi deb hisoblagan bo'lar edilar».

Keltirilgan bu satrlar shoirning tarjimai holini chuqurroq o'rganish va bilishga da'vat etuvchi, uning ma'rifat yo'lidagi kurashlarida qanchalik qiyinchiliklarga uchraganidan dalolat beruvchi misralardir.

Ibn Sino lirik shoir sifatida ham ko'pgina asarlar ijod qiladi. Uning bizgacha saqlanib qolgan ba'zi lirik she'rlarida ajoyib fikrlar obrazli ifodalanadi, ularda turli-tuman original o'xshatish va tasvirlar, ifodalar, majoz va metaforalar ko'zga yaqqol tashlanadi. U asarlaridan birida yorning qattiq ko'pgilliligi, o'zining esa sabrliligi haqida so'z yuritir ekan: «Mening ko'pglim qattiq sabrli bo'lsa, sening yuraging qattiq qahrli ekan, menimcha, ikkimiz ham ishqda qattiq bir tosh ekanmiz»,— deydi. YOr visoliga etishish, uning oydek jamolini ko'rib, o'zini baxtiyor hisoblash shoirning orzusiga aylanadi:

«Ey, meni hasta qilgan go'zal! Mening hastaligim sening qaboqlaringdandir. SHunday, ular meni ham hasta qiladi, ham tuzatadi, Meni baxtiyor qiladigan vaslingni menga in'om qil. Senga etisholmasam ham, vaslingga etintib, qanoat qilib turaman. Axir javhar(substansiya) o'rnini oraz (akıidenııya) egallaydi-ku»¹.

SHoir yor madhini kuylagan satrlari bilan kishi ko'z o'ngida durustgina manzarani gavdalantiradi. U yor sochini tunga, chiroyini esa, quyoshga o'xshatib, bunday yozadi:

«YUzing husnini saqlamoq uchun jamolingni parda bilan berkitib, ko'zlardan asramoqchilar. Mei esam, yuzingdan pardani olib tashlab, (uni) ochiq qo'yishning o'zi bilan chiroying durustroq saqlanadi, deb bilaman...» SHoir boshqa bir o'rinda yor bilan uchrashgan yoshlik, sevishgan damlari va shod – xurramlik chog'larini eslaydi. O'sha onlarni xotiriga keltirib, o'zini o'zi so'roqqa tutadi:

«Bu erlar sevishganlarning joylari-ku, eslay olmayotibsanmi?! O'sha sen ko'rgan narsalardan biror asar qolmaganidan taniy olmayotibsanmi?! Axir yonoqlarimda ko'z yoshlarim sellari hosil qilgan iz-ajinlar kabi, bu joy vayronalarini sellar yuvib ketdi-ku! SHunday, u erdagi asarlar xuddi mening yoshligim asarlari va uning porloq nuri o'rniga oqsoch chechaklari kelgani kabi, yo'q bo'lib ketadi. CHakkalarimdan chiqib turgan sochlarimning oqlik rangi-chi. Ular go'yo meni qo'rqitish na ogohlantirishga kelgan bir belgi. Menga, bu oqsochlaringni bo'ya, deyishdi. Men ularga, tiriklikdagi oqlikni yomon ko'raman-u, o'lik va ko'miladigan oqlikni men nega yomon ko'rmay, dedim».

Bu erda shoir «javhar» so'zidan ma'shuqaning: o'zini, «oraz» so'zidan uning visoliga etishuvni anglaydi.

Ibn Sino may haqida ham ko'pgina she'rlar yozadi. U mayni birinchi navbatda davo-shifo uchun va quvvatni joyiga keltirish uchun iste'mol qilishni maqsadga muvofiq deb biladi. Buni hakimona hal qilib, bunday deydi:

May dushmani mastu do'st bo hushyorast;

Andak taryoku, besh zahri morast.

Dar bisyorash mazarrati andak nest,

Dar andak'i u manfaat bisyorast.

(May mastning dushmani-yu, hushyorning do'stidir. Uning ozginasi taryok — zahar davosi-yu, ko'pi ilon zaharidir. Ko'pidan zarar oz emas, ozida manfaat ham kattadir).

SHoir may haqida yozgan ruboiylaridan birida arab tilini chuqur bilishini ko'rsatadigan detallar berish bilan birga, mayning xursandchi-lik shifolik xususiyatlarini tubandagicha tasvirlaydi:

«Bunday qiyinchiliklarda may jonniig bir rohatidir. Tangrim, mening rohatimni kaftim ichida muhayyo qil. Tok qizi — may sevgidan. yara-langanlarga shifo bo'ladi. SHunday ekan, u bilan jarohatimni davolagin, ey karamli kishining farzandi!»

Mumtoz adabiyotimiz asarlarida mayni maqtash, ulug'lashda diniy aqidaparastlik va shariat qobig'ida yashaydigan johil kishilarga qarshi zaharxandalik bilan aytilgan satrlar ham uchraydi. Ibn Sino may haqida g'azal, ruboiy va nazmning boshqa janrlarida she'r yozar ekan, u birinchi navbatda tabib-hakim sifatida fikr yuritadi.

Quyida Ibn Sinoning may haqidagi eng mashhur g'azalini keltiramiz:

G'izoyi ruh buvad bodayi rahih, alhaq,

Ki rang u kunad az dur rangi gulro daq.

Aqiq paykaru, yoqut rangu, la'l nishon,

Humoy gardad agar jur'ayi binushad baq.

Ba ta'm talh, chu pandi padar va lek mufid,

Ba peshi mubtil botil, ba nazdi dono haq.

May az jaholati juhhol shud ba shar' harom —

CHu mah az sababi munkironi din shud shaq,

Halol gashta ba fatvoyi aql bar dono,

Harom gashta ba ahkomi shar' bar ahmaq.

SHarobro chi gunax, zonki ablahe nushad

Zabon ba harza kushoyad, dihad zi dast varaq.

Halol bar uqalou, harom bar juhhol,

Ki may mahak buvad va xayru sharr azu mushtaq.

G'ulomi on mayi sofam ki az ruhi xubon,

Ba yak-du jur'a barorad hazor guna araq.

CHu Bu Ali mayi nob ar xo'riy hakimona,

Ba haqqi haq ki, vujudat ba haq shavad mulhaq.

(Toza boda rostdan ham ruhga oziq beradi. SHundayki, uning rangi va hidi olisdan gulning rangi (va hidi)ni hech gap qilib qo'yadi. Ko'rinishi aqiqu, rangi yoqut, la'l sifat, agar bir qultumini ichsa, kishi Humoyga aylanib ketadi. Ta'm jihatdan qaraganda, xuddn ota pand-nasihatidek achchiqqina-yu, lekin foydali; yolg'onchi nazarida yolg'on-u, dono nazarida haqiqatdir. Johillarning jaholati tufayli may shariatda, xuddi dinda munkirlar oy bo'linadi, deganlaridek, harom deb e'lon qilindi. Aql fatvosi bilan donolarga halolu, shariat hukmi bilan ahmoqlarga haromdir. Axir sharobda nima gunoh? Agar bir ablah: ichsa, tilini har baloga yuritib, qo'lidagi varag'ini (ya'ni sirini) berib qo'yadi. SHarob oqillarga halolu, johillarga harom, chunki u mahakning o'zginasidir, yaxshi-yu yomon unda ajralib qoladi.

Men bir-ikki qultumining o'zi yaxshilar yonog'ida ming turli ter chiqaradigan sof may bandasiman. Agar bu Aliga o'xshab donolik bilan mayi nob ichsang, xudo haqi, haqiqatga erishgan bo'lasan).

SHoir may haqidagi she'rlarida bayon etgan fikrlarini, olg'a surgan g'oyalarini din arboblari, shariat peshvolariga, qotib qolgan aqo-yidchilarga, toat-ibodatdan boshqa hech narsani bilmaydigan, dunyoviy ilmlar bilan shug'ullanmaydigan va

dunyoviy ishlardan yuz o'g'irgan kishilar toifasiga qarama-qarshi qo'yadi; ular ustidan istehzo qilib kuladi. Ibn Sinoning dunyoqarashida materialistik qarash asosiy o'rin tutadi. Uning mediina va boshqa aniq fanlar bilan shug'ullanishining o'zi olimning bu pozitsiyada mustahkam turganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, olimning falsafiy sistemasi materialistik pozitsiya hisoblangan to'rt element (anosiri arbaa) ta'limotiga asoslanadi. Uning o'zi,— ma'dan, o'simlik va hayvon jinsidan bo'lgan murakkab jismlarniig asosi to'rt unsurdir,—deydi. Moddiy dunyoni diqqat-e'tibor bilan kuzatadi, o'rganadi va mulohazalar yuritadi. U yozadi:

Har hay'atu, har naqsh ki, shud mahv kunun,

Dar maxzani ro'zgor gardad maxzun.

CHun boz hamin vaz' sharad vaz'i falak.

Az nardai g'aybash ovarad haq berun.

(Hozir yo'q bo'lib ketadiganday bo'lib ko'rinadigan har bir naqsh davr xazinasida (yo'q bo'lib ketmay), yig'ilib boraveradi; falak shu tahlitda boraversa, parda ostidan ular yana paydo bo'lib boraveradi).

Bu haqiqatan ham Ibn Sinoning izchil kuzatuvchan ekanini va g'ayrishiuriy ravishda asl haqiqat tomonida turib ish yuritganini ko'rsatadi. Lekin olim yashagan davrning qoloqligi uning tarixiy cheklanib qolishiga sabab bo'ladi va dunyoviy qarashlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Ibn Sino ko'pgina masalalarni materialistik hal qilsa ham, falsafaning asosiy masalalarida idealistik pozitsiyada turadi. Lekin shunga qaramay, u o'ziga ma'lum bo'lgan barcha bilimlarni to'la-to'kis egallaydi, ko'p masalalarni dadillik bilan mustaqil va original hal etishga intiladi va o'zi kirishgan yo'lga sodiq qolib, unga so'z va qalami bilan xizmat qiladi; mo'l-ko'l yutuq va g'alabalarga erishadi.

Ibn Sino fikricha, fan insoniyatga xizmat qilishi, olimlar tabiat qonunlarini ochib, avloddan avlodga etkazishlari kerak.

Abu Ali ibn Sino yashab ijod etgan davrda mafkura sohasida ham qarama-qarshiliklar kuchli edi. Hukmron doiralarning o'zaro doimiy urushlari, shahzodalarning bir-biri bilan taxt talashishlari, yuqori tabaqa o'rtasida mansab uchun bo'lgan ikir-chikir kurashlar va tortishuvlar — bularning hammasi mehnatkash xalq ommasining boshiga bitgan «tug'ma» kulfat edi. Xalq boshiga muttasil tushayotgan falokatlar, cheksiz azob-uqubat va xonavayronliklar, tinimsiz qon to'kish, keskinlik va g'alayonlar o'sha davr mafkurasiga ta'sir etmay qolmas edi.

Olim dunyoda yuz berayotgan adolatsizlik, norozilik va tengsizlikni ko'radi, ularni o'zicha mushohida qiladi, ammo ularning sabablarini topolmaydi, hayronlik daryosiga sho'ng'ib, olamni tushuna olmaganini, dunyo, haet — borliq falsafasi bilan boshi qotganini shikoyatomuz yozadi:

Ey kosh, bidoname, ki man kistame,

Sargashta ba olam az pay chistame?

Gar muqbilam osudayu xush zistame,

Varna bahazor diyda bigiristame.

(Eh koshki edi, men o'zimning kimligimni, olamda nima uchun tentirab yurganimni bilsam zdim. Agar kelajagim xayrli bo'lsa edi, mayli, tinchgina, bemalol tirikchiligimni qilaverardim. Va bordiyu agar unday bo'lmasa, yuz ko'z bilan o'kirardim).

Ibn Sino inson haqida, uning kelajagi, nega tug'ilib, nega o'layotgani, dunyoning qonun-qoidalarini haqida mushohida qiladi; din-shariat ar boblarining, odamlar o'lgandan keyin tiriladi, degan safsatasiga qarshi piching bilan mana bunday deydi:

Hazor shaxsi karim az vujud shud baadam,

Ki yak karim namioyad az adam bavujud.

(Minglab nafar ulug' zotlar borlikdan yo'qlikka ketdilar. Axir bu ulug' zotlarning birortasi 'ham yo'qlikdan borlikka kelmayaptilar-ku!)

Ibn Sino o'tkir shoir sifatida xudo, din va shariat neshvolariga qarshi ajoyib misralar yaratadi. Tangriga qarata yozgan quyidagi ruboiysida aytadi:

Moyim baaf'u tu tavallo karda

Va zi toatu masiyat tabarro karda.

- Onjo ki inoyati tu boshad, boshad —

Nokarda chu karda, karda chu nokarda.

(Bizlar sening kechirishingga ishongan kishilarmiz. CHunki biz toat-ibodatdan yuz ugirgan kishilarmiz. Bizga sening inoyating bo'lsa, bo'ldi, chunki agar sen xohlasang, toat-ibodat qilmagan qilgan hisobiga, qilgan esa qilmakan hisobiga o'taveradi).

SHoir ushbu ruboiysi bilan islom dini va shariat hukmlarini qo'porib tashlaydi, kishilarni aql-idrok bilan ish yuritishga undaydi.

SHoir-faylasufning fikri doimo ana shunday hayot muammolari bilan band bo'ladi. U qaysi o'lka yoki shaharga bormasin, hamma erda ham «xo'r'oz bir xilda qichqirishini», hamma erda ham adolatsizlik va insoniy huquqni oyoq osti qilish hollari mavjudligini ko'radi. Hamma joyda ham odamlar dunyoga kelganidan o'zi singari hayronligini, boshi qotganligini payqaydi; hamma joyda ham u «hayronlik kaftini iyagiga tirovchidan yoki no'shaymonlik barmog'ini tishlab turuvchidan boshqani ko'rmaganini» yozadi.

Bunday hollar olimning dunyoqarashiga salbiy ta'sir etmay qo'ymadi, albatta. Uning sarson-sargardonligi, quvg'inda yurishlari undagi pessimizmni kuchaytirdi, uning idealistik qarashlarini rivojlantirdi.

3-bob. Ibn Sino qissalarida ma'rifatparvarlik.

3.1. Ibn Sino ijodida insonparvarlik g'oyalari.

Ibn Sino nazmiy asarlar yozish bilan bir qatorda ko'pgina nasriy adabiy asarlar ham yozadi. Uning «Hayy ibn YAqzon» («Uyg'oq o'g'li Tirik»), «Risolatut Tayr» («Qush risolasi»), «Salomon va Ibsol», «YUsuf qissasi» asarlari mutafakkir olimning adabiy ijodida katta urin tutadi.

Ibn Sinoning «Hayy ibn YAqzon» povesti keyinchalik ispan yozuvchisi Ibn Tufaylning shunday iomli romaniga ijodiy turtki bo'lib xizmat qiladi. Garchand Ibn Sino bilan Ibn Tufayl yaratgan asarlarning syujeti boshqa-boshqa bo'lsa ham, ular kun jihatdan bir-biriga yaqin turadi. «Risolatut Tayr» esa Farididdin Attor va Navoiyning shu nom va mavzuda asar yozishlariga zaminlik vazifasini o'taydi.

Ibn Sinoning «Salomon va Ibsol» qissasi faqat Toshkentdagina mavjuddir. Hozir bu asar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Aburayhon Beruniy nomli SHarqshunoslik institutiing kitob fondida saqlanmoqda¹.

«Salomon va Ibsol» qissasining mazmuni quyidagicha:

Salomon bilan Ibsol aka-uka bo'ladilar. Ibsol o'z akasi Salomon qo'lida tarbiyalanadi. U juda odobli, o'qimishli va juda chiroyli bo'ladi. Ibsol balog'atga etgach, akasining xotini, uni yaxshi ko'rib qoladi. Buni sezgan Ibsol o'zini yangasidan chetga tortib yuradi. Ammo xotin borgan sari Ibsol bilan yaqinlashishga intiladi. Nihoyat u fursat topib, Ibsolni tanho uchratadi va uning bo'yniga qo'l tashlaydi. Ibsol uni jerkib beradi, xotin esa, seni sinab ko'rish uchungina shunday qildim, deb qasam ichadi.

So'ngra xotin bu yo'l bilan o'z maqsadiga erisha olmagach, boshda yo'l topadi. U Ibsolga o'zining singlisini olib berib, o'z maqsadiga etmoqchi bo'ladi va bu to'g'rida Salomon bilan maslahat qiladi. Salomon maslahatni ma'qullaydi. Keyin xotin singlisi huzuriga borib, uni Ibsolga olib bermoqchiligini, lekin bundan maqsadi o'zining Ibsol bilan birga bo'lishligini aytadi va singlisini ko'ndiradi. Uylanishga Ibsol ham ko'nadi. Keyin xotin Ibsol oldiga kelib, singlim juda uyatchang qiz, shuning uchun sen uning oldiga bir oy mobaynida kunduz kuni kirmay, tun qorong'usida kirgin, deb uqtiradi. To'y bo'lib o'tadi. Ibsol qallig'i oldiga tunda kirishi bilanoq, qalliq uni

1. Rasoiilu hukamo, O'zFASHI kitob fondi, inv. N- 2385. 101 -103 varaqlar.

darhol quchoqlab oladi. Ibsol bundan hayratga keladiyu YAngasi «juda uyatchang» deb ta'riflagan qizning bunday nojo'ya harakatini ko'rib ajablanadi va shubha qila boshlaydi. SHu vaqt birdan chaqmoq chaqiladi-yu, qarshisidagi ayolning yuzi ko'rinadi. Qarasa, ro'parasida turgan ayol uniig qallig'i emas, balki o'zining yangasi ekan.

Ibsol indamay, qaytib chiqib ketadi. U yangasini o'zidan sovutishni o'ylab, bu dargohdan yiroqlashmoqchi bo'ladi. Qeyin akasidan o'lkalarni fath etish uchun lashkar bilan jo'natishini iltimos qiladi. Akasi ko'nib, unga lashkar to'plab beradi. Ibsol jo'nab ketadi va butun duneni „egallab qaytadi.

Ibsol, yangam endi meni unutgandir, deb o'ylaydi, lekin aksincha bo'lib chiqadi. Xotin hamon eski dardida bo'ladi.

Ko'p o'tmay aka-uka Salomoi va Ibsollar davlatiga qarshi dushman bosh ko'taradi. Salomon Ibsolni askar boshlig'i qilib, dushmanni daf qilishga jo'natadi. Xotin endilikda Ibsolni qo'lga kirita olmasligiga aqli etadi-da, undan qasd olishga chog'lanadi. U bir necha askar boshliqlariga mol-dunyo berib, Ibsolii jang maydonida halok qilishlarini tayinlaydi. Dushman g'olib keladi. Ibsol jang maydonida behush bo'lib yiqiladi, qolganlari qochadi. Ibsol bir qancha vaqtdan so'ng hushiga kelib, ortiga qaytib keladi. So'ngra dushmanlarga qarshi qayta otlanib, hammasini er bilan yakson qiladi. Keyin yangasi o'z sirining oshkor bo'lib qolishidan qo'rqib, yana Ibsolni o'ldirish chorasini axtara boshlaydi. Nihoyat u ikki oshxona xizmatchisini yo'lga solib, Ibsolga zahar solingan ovqatni berdiradi. Ibsol o'ladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay butun sir Salomonga ma'lum bo'lib qoladi. U xotini va ikki oshxona xizmatchisini, ular ukasi Ibsolga nima berib o'ldirgan bo'lsalar, ularga ham xuddi shuni ichirib o'ldiradi.

Ibn Sinoning «Salomon va Ibsol» qissasi hajm jihatidan kichik bo'lishiga qaramay, o'z oldiga katta tarbiyaviy masalalarni qo'yadi. povestda sabot va matonatli, chidamli va intizomli, sofdil va ajoyib bir yigit— Ibsol obrazini hamda har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, o'ziing iflos maqsadini amalga oshirishga tirishadigan, bu yo'lda hech narsadan toymaydigan salbiy bir ayol obrazini beradi. Asarning mazmuni, kompozitsiyasining yo'nalishi va obrazlari uning avtorining usta hikoyanavisligidan darak beradi.

Ibn Sinoning bu asari bilan ma'lum bir tabaqa kishilarini tarbiyalashga uringanligi sszilib turibdi. Salomonning xotini obrazi feodal saroy muhitiga xarakterli bo'lgan tiplardan biri ekanligi ana shundan dalolat berib turibdi.

Qissada Ibsol obrazi asta-sekin chuqurlasha va erqinlasha boradi.

Ibsol, dastlab, yangasining nojo'ya xatti-harakatini sezib, uydin chiqib ketadi. Bu uning yangasidagi yomon tuyg'ularni yo'qotish uchun tongan birdan-bir chorasi edi. Lekin ish bu bilan tugamaydi. Ibsol akasi: «Axir u seni o'z bag'riga olib tarbiyaladi, sen bola eding, u senga onalik ko'zi bilan qaradi», deb aytganidai keyingina uyga qaytadi. Salomon bu bilan Ibsolda yangasiga nisbatan naydo bo'lgan yomon tushunchaga zarba beradi. Bunda Ibsol hali faqat uyatchan yngit sifatidagina gavdalanadi.

Avtor Salomonning xotini Ibsolga sevgi izhor qilgan paytda uning qanchalik ranjiganini ko'rsatish bilan Ibsol obrazini yana pishitadi va yorqinlashtiradi. Oxirida xotin o'z yaramas qilig'i uchun Ibsoldan dakki eb, tilyog'lamalik qilnshga o'tadi.— Men seni sinab ko'rish uchun shunday qilgan edim,— dendi. Xotin endi bunday qilmaslikka qasam ichadi. Bular Ibsol obrazini pishitishga yordam beradigan yana bir shtrix sifatida xizmat qiladi. Nihoyat, xotin Ibsol bilan yaqinlashishga chora topa olmagach, uni o'z singlisiga uylantirib, o'rniga o'zi kirib yotadi. Bunda ham Ibsol

nayrangni sezib qolib, xotinni tashlab chiqib ketadi. Bu bilan Ibn Sino Ibsol obrazini yanada nishitib, voyaga etkazadi. Ibsol jangdan qaytgach, xotin ko'rishishni bahona qilib, uni quchoqlamoqchi bo'ladi. Ammo Ibsol do'q urib, uni o'ziga yaqinlashtirmaydi. Obrazning sofliğiga hech kanday shubha qoldirmaslik uchun avtor ana shunday detalъ ishlatadi. Ibsol o'lsa o'ladi-ki, lekin sharmandalik yo'liga kirmaydi.

Asar oxirida kitobxon ko'z o'ngida etuk, puxta va ancha quyuqlashgan, tuyg'ularga mutlaqo bo'ysunmaydigan obraz gavdalanadi. Ikkinchidan, xotinning butun qilmishlari, ishlatgan hiyla-nayranglari barbod bo'ladi, egrilikning to'g'rilik ustidan hukmron bo'la olmasligi oydinlashadi.

Ibn Sino peyzajlarni, tabiat holatlarining tasvirlarini ham e'tiborsiz qoldirmaydi. U peyzajlardan juda ustalik bilan foydalanadi. Ibsolning o'z qallig'i oldiga tim qorong'i kechada kirganida bulut bilan qonlangan osmonda to'satdan ketma-ket chaqmoq chaq nab ketgan payt tasviri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu shtrix avtor tomonidan juda o'rinli, o'z joyida, juda ham ustalik bilan ishlatiladi. Bundan tashqari, Ibsol o'lganidan keyin unga tutilgan aza va chekilgan qayg'ularni tasvirlashda ham Ibn Sino tabiat hodisalarig'a murojaat qilib, ulardan mazkur holatlarni ta'sirli bayon etishda mohirona foydalanadi.

Umuman aytganda, Ibn Sinoning bu qissasi o'rta asr adabiyotining ajoyib namunasi hisoblanadi. Uning o'zi ham bu asariga alohida ahamiyat beradi. SHuning uchun «Ishorot» degan asarida: «Agar qulog'ingga chalingan (so'zlar) va eshitganlaring orasida «Salomon va Ibsol» qissasi senga yoqib qolsa, shunda sen bilginki, agar sen irfon ahlidan bo'lsang, Salomon sening uchun to'qilgan masal, Ibsol bo'lsa ma'rifatdagi darajang uchun to'qilgan masaldir. Undan keyin, agar kuching etsa, bu ramzni echgin»,deb yozadi-ki, bu avtorning mazkur asarga chindan zo'r e'tibor berganligini asosli ravishda tasdiqlaydi. Bunda Ibn Sino kishiga qarata, sen Salomon

singari o'zingga o'zing ega bo'l, o'zingga shoh bo'l, sening ma'rifiy darajang esa Ibsolday bo'lsin, .odobli, axloqli, intizomli, sofdil bo'l» yolg'onchi va johillarga nisbatan rahmsiz bo'l, shiddatli adolatparvar bo'l, demoqchi bo'ladi.

Ibn Sino YUsuf haqida ham qissa yozadi. Bu qissani yozishdan olim «Salomon va Ibsol» qissasidagi sofdil yigit Ibsol obrazi kabi YUsuf obrazi orqali ham kishidaga eng olijanob fazilatlarni targ'ib qilish va bunga undash maqsadini ko'zda tutadi. CHunki YUsuf yaxshi xulqli, chidamli va chiroyli bo'lishiga qaramay, o'z husniga berilib, katta ketmaydi.

Ibn Sino YUsuf haqidagi qissasida Ibsol obrazidagi mavjud olijanob fazilatlarni YUsuf obrazida yanada takomillashtirib, o'z ideallarini yanada chuqurroq va ravshanroq ko'rsatib beradi.

3.2.Adib qissalaridagi ramziy ma'nolar.

Ibn Sinoning «Risolatut Tayr» («Qush risolasi») asari uning adabiy ijodi va dunyoqarashini bilishda muhim asarlardan hisoblanadi. Bu asar, aslida, ramz-ishoralar bilan yozilgan bo'lib, olimning tarjimai holini bilishda katta ahamiyat qozonadi.

«Risolatut Tayr» asarining bosh qismi olimning do'stlik haqidagi nasihatlaridan iborat. Bu erda u odamlarni bir-biri bilan ahil, dust bo'lib yashashga, do'stlikning qadriga etishga, uning to'la ma'nosini yaxshi tushunib, uqib olishga chaqiradi. Og'zida do'stman, deb, amalda do'stining holidan xabar olmaydigan, nomigagina dust bo'lib yuradigan kishilarni qoralaydi.

Yozuvchi qissani qush tilidan ,bayon qiladi.

Bir guruh ovchilar qushlarga tuzoq qo'yib, o'zlari pichan orqasiga yashirinadilar.

SHunda,— deydi hikoya qiluvchi qush,— men qushlarning bir to'dasi ichida edim. Biz serdon joyni va o'zimizga o'xshagan qushlarni ko'rib, hech narsadan xavfsiramay, ovchilar tuzoq qo'ygan erga qo'ndik, lekin to'pimiz bilan tuzoqqa ilindik. Halqalar bo'ynimizga o'ralib, oyoqlarimizni tuzoqlar band qildi. Tuzoqlardan qutulish uchun qancha urinsak ham, bundan hech foyda chiqmadi, qaytanga tuzoqqa battar o'ralashib qoldik; halok bo'lishimizga ko'zimiz etib, qutulish chorasini o'ylab yotdik. Birdan ko'zimizga uchib borayotgan bir gala qushlar ko'rinib qoldi. Ularning bosh qanotlari ozod bo'lsa ham, oyoqlarida tuzoq qoldiqlari bor edi. Men, zora u qushlar bizga yaqinroq kelib qutulish yo'lini ko'rsatsa, degan umidda ularni chaqirdim. "Ular mening qafasdaligimni ko'rib, ovchilar hiylasini eslashdi va mendan yanada uzoqlashishdi, lekin ilgarigi chin do'stligimiz haqida ganirib, yolg'oranimdan keyingina menga yaqin kelishdi. Men ulardan holi-ahvol so'ragan edim, men muhtalo bo'lgan narsaga ular ham uchraganliklarini, so'ngra bunga ko'nikib qolganliklarini gapirib berishdi. Keyin ular bo'ynimdan tuzoqni, qanotlarimdan ko'zanakni olib tashlashdi. Men oyoqlarimdan halqalarni ham olib tashlashlarini iltimos qilgan edim, ular menga, agar bu ish qo'limizdan kelganida edi, biz avval o'z oyog'nmizni bo'shatib olgan bo'lur edik, deyishdi. SHu tahlitda uchmokchi bo'l-dik. SHunda ular menga, oldingda juda ko'p davonlar bor, sen biz bilan uchsang, biz senga to'g'ri yo'lni ko'rsatib qo'yamiz, deyishdi.

Ular bilan birga uchib ketdim. Keng vodiylar bo'ylab narvoz qilib, baland tog' cho'qqisiga qo'ndik. Atrof-tevaragimizga bunday qarasak, hali oldimizda yana sakkizta tog' turibdi. Dushmanimizdan xavotirlanib, bu erdan tezda ko'tarildik-da, olti tog'dai o'tib, ettinchisiga etdik. U er juda obod joy ekan, noz-ne'matlaridan eb, bir oz orom oldik. Dushman izma-iz etib kelib qolmasan degan xavfda u erdan ham tezda jo'nab qoldik va sakkizinchi toqqa etib keldik. Bu er ham juda ajoyib joy ekan,

bu erda shunday qushlar bor ekanki, undaylarini umrimda aslo ko'rgan emasman. Biz ularga dardimizni bayon qilgan edik, ular mana shu tog'ning orqasida bir shahar bor, o'sha erda buyuk amir—podsho o'tiradi, borib unga arzinglarni aytinglar, deyishdi. Biz ular aytgan joyga borib, shoh dargohiga kirishga ruxsat kutib turdik. Keyin shohdan buyruq kelib, biz ichkari kirdik. Qirgan joyimiz juda ham go'zal bir sahn-saroy ekan, uning ta'rif va tavsifini gapirib berish qiyin. Undan o'tganimizdan keyin keng va yaraqlagan sahndan parda ochildi. Bu sahn oldida avvalgi sahn torroq tuyuldi. Nihoyat, biz nodsho hujrasiga etdik. Parda ko'tarilib, shohning jamoliga ko'zimiz tushgach, behush bo'lib, dardimizni aytolmay qoldik. Hayriyat, uning o'zi niyatimizni payqab, o'z lutfi bilan es-hushimizni joyiga keltirdi. Keyin biz dadil-lanib, o'z kechmishlarimizni gapirib berdik. U, oyoqlaringizdagi tuzoqni uni qo'ygan kishidan bo'lak hech kim echolmaydi; men ularga bir elchi . yuboraman, mazkur elchi sizlarni ozod qilib yuborishni ovchilarga tayinlaydi; xursand bo'lib tarqalinglar, dedi. Biz elchi bilan izimizga qaytdik.

«Risolatut Tayr» qissasining syujeti ana shundan iborat.

Garchi bu asarning qahramonlari qushlar bo'lsa-da, aslida ularning zamirida insonlar, real haet kishilari etadi. Asarni sinchiklab o'qib chiqqan har bir kishi uni uz muallifining kechmishidan hikoya qilgan ramziy ishoralar ekaniga amin bo'ladi. CHindan ham, bu asardagi ramz-ishoralardan olimning o'z davridan shikoyati, tortgan jabru jafo va alam-sitamlari, tinch-osuda turmushga erisha olmagan, sargardonlikda hayot kechirgani yaqqol sezilib turadi. Boshqacha aytganda, bunda Ibn Sino o'z tarjimai holini qisqacha eslatib o'tadi. Olim hukmron sinfnig o'zaro olib borgan kurashlari natijasida o'zining shaharma-shahar kezishga majbur bo'lga-nini, ko'pgina asarlari va ilmiy faoliyati ta'qib ostiga olinganini o'z asariga ramziy yo'llar bilan singdirib yuboradi.

Aslini olganda, asardagi tuzoq Mahmud G'aznaviyning changalidir, qushlarning bosh va qanotlarining ozod bo'lishi Xorazmshoh mamlaka-tidagi olimlarning takdirlari o'z qo'llarida zkanligidir, qushlarning oyoqlarida tuzoq qoldiqlarining qolishi va dushmanning izma-iz quvib kelishidan qo'rquv — ular qaysi o'lka, qaysi shaharga bormasinlar, baribir, hamon muhayyo bo'lib turgan Mahmudning ta'qibidan qutulma-ganliklaridir, ustidan uchib o'tilgan tog'-vodiylar — Ibn Sino qochib yurgan shaxarlardir. Qushlarning arz-dod qilib bir podsho huzuriga borishlari va u podshoning qushlarga elchi qo'shib berishi — Xorazmshoh Ma'munning IbnSino Xorazmdan qochganida unga yo'l ko'rsatadigan kishi qo'shib berganligidir.

Xulosa qilib aytganda, olimning «Qush risolasi» o'rta asr badiiy falsafiy adabiyotining ajoyib namunalaridandir.

Ibn Sinoning bu xildagi asarlaridan yana biri «Hayy ibn YAqzon» («Uyg'oq o'g'li Tirik») qissasidir. Bu qissada naql etilishicha, hikoya qiluvchi shaxs bog'da o'rtoqlari bilan sayr qilib yurganida qarshisida kelayotgan bir nuroniy qariyaga duch keladi. U bilan tanishgisi kelib qa-riyaga yaqinlashgach, chol yigitdan oldin unga salom beradi. Yigit choldan otini so'rasa, nomim Hayy — Tirik, otamiing ismi YAqzon — Uyg'oq, vatanim — Baytul Muqaddas, hunarim— dunyoni sayohat qilish, deydi. Keyin chol dunyoni sayohat qilganini: ko'rgan-bilgan narsalarini yigitga so'zlab beradi.

Ibn Sino mazkur nuroniy chol misolida aqlni ko'rsatmoqchi bo'ladi hamda bu aql dunyoda kezib yuradi va har bir dargohga kira oladi, deydi. CHol yigitni o'z orqasidan yurishga da'vat qiladi. Bundan olimning kishilarni ilm ketidan borishga da'vat qilgani anglashiladi.

Qissadagi Aql— Uyg'oq o'g'li Tirik odamlarni kishilarnilg fe'l-atvorini, tabiatini chuqurroq tushunish uchun farosat ilmi — mantiqni bilishga da'vat etadi. Negaki, bu

ilm, Ibn Sino iborasi bilan aytganda, foydasi naqd ilmlardan bo'lib, kishining didini o'stiradi, fikr do-irasini kengaytiradi, bilgan-bilmaganlarini

o'ngiga keltirib, uni tartibga soladi.

Bunda Ibn Sino eski falsafadagi aqliy ob'ektlarni moddiy narsalar sifatida gavdalantiradi. Kishi xarakterlari jismoniy quvvatlar bo'lib kelib, uni birinchi shaxsga nisbatan oshnalar tariqasida oladi va shu qabilda bu oshnalarni klassifikasiya qiladi.

Instinkt, shahvatga berilish, g'azab, ochko'zlik, yalqovlik, xasad, zulm va o'g'irlik kabi kishida bo'ladigan ayrim xususiyatlar aqliy ob'ektlar turiga kiradi. Qissada mana shu ob'ektlarning foydali va zararli tomonlari, ular bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida fikr yuritiladi.

Inson, tabiatan, har narsani tushunish, bilish, sezish .qobiliyatlariga ega. Lekin unda bir necha yomon xislatlar — ochko'zlik, birovga zulm qilish, o'g'irlik qilish va yolg'onchilik singari yomon xususiyatlar, Ibn Sino aytmokchi bo'lganidek, yomon oshnalar ham bor. Bularning har biri kishini girdobiga tortib, inson tabiatidagi mavjud qobiliyatning normal ishlashiga yo'l qo'ymaydi; xalaqit beradi, unda tagi puch va bo'lmag'ur narsalarga moyillikni orttiradi. Bular odamning yomon oshnalari, to'g'rirog'i, dushmanlaridir; hayotda kishi, birinchi navbatda, mana shu dushmanlarga qarshi kurashmog'i, Ibn Sino tili bilan aytganda, kishi o'z jilovini unday dushmanlar qo'lga tutqazib qo'ymasligi, ularning o'ziga etakchi bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Doimo aql ishlatib, ulardan ustun kelishga, ularning jilovini qo'lga olishga harakat qilishi lozim. Kishi shunday qilganida, u «oshnalar»ini to'g'ri yo'lga boshlagan bo'ladi. Buning uchun Ibn Sino kishini qattiq turishga, «oshnalar»i uni zabt etib olmasdan burun «oshnalar»ni zabt etib olishga undaydi. Aks holda tanbal oshnang seni tanballik — yalqovlikka sudraydi, yolg'onchi oshnang haq narsalarni

nohaqqa chiqaradi, elg'on-yashiq, tubsiz narsalarni rostga aylantirib ko'rsatishga urinadi, senga ko'z bo'yamachilik rolini o'ynashga xizmat qiladi, deydi.

Ibn Sino qissaning bosh qismida, aslida, bunday hikoya qilmoqchi va: Men es-hushimni tanib olgan chogimda, menda ilm-ma'rifat olishga istak paydo bo'ldi. Keyin fanga fikri-zikrim (asarda: oshna-og'aynilar) bilan kirishdim. Salgina ijti-hod qilgan edim, ko'zim ham ochilib ketdi; uning natijasi bo'lgan Aql (qissada: Hayy ibn YAqzon) nazarimda namoyon bo'ldi. Mening ilm sohasida mehr bilan qadam ranjida qilganimni ko'rib, ilm menga o'z jamolini ko'rsatdi, meni qutlab qarshi oldi (asarda: Hayy ibn YAqzon menga avval salom berdi). Bunday o'ylab qaragam, Aql-ilm juda qadim zamonlardan beri davom etib kelar ekan. U o'limni bilmaydigan —Uygoq, qarimaydigan — yosh, beli bukilmaydigan barvasta, nuroniy, kim unga oshna bo'laman desa, u bilan qalinlashadigan va uni olqishlab kutib oladigan narsa ekan. Men tafakkur qilib, o'zimga zarur bo'lgan va bilishim mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishdim; bu yo'lda aqlni ishga solib, o'zimni ko'p gidirlardan, yomon kirdikorlardan saqlashga ulgura oldim; yomonliklardan chetlashishga olib boradigan har xil xususiyatlarimni bilib oldim. Qaysi fe'l-ataorim menga do'stu, qaysinisi dushman ekanini, qaysilari menga foyda berib, qaysilari ziyon berishini, qaysilari meni to'g'ri yo'lga-yu, qaysilari egri yo'lga boshlashini angladim. Xullas, men o'zimni o'zim yaxshilab sinchiklab o'rgandim, kimligimni tushundim va shundan keyin bilib ishimni qilgan edim, katta-katta yutuqlarga erishdim, demoqchi bo'ladi.

Ibn Sinoning biz yuqorida ko'rib va tanishib o'tganimiz uchchala nasriy asari ikki planda yozilgan: bunda u ham adib, ham faylasuf sifatida qalam tebratgan. Bu, albatta, birinchi navbatga, Ibn Sinoning ulug' faylasuf, etuk adib va buyuk mutafakkir ekanligi bilan izohlanadi.

Ibn Sinoning har uchchala asarining tili bir-biridan qolishmaydigan darajada og'ir bo'lib, ba'zi hollarda olim hatto o'z davridayoq, iste'moldan chiqib ketgan ibora, jumla va so'zlarni ishlatadi; ba'zan sinonim so'zlarni birin-ketin keltirib, ularning har biridagi o'ziga xos ma'nolarni berishga intiladi. Ba'zi hollarda esa qur'on tiliga xos uzuq-uzuq jumlar tuzishga harakat qiladi. Bu keyingi hol uning «Salomon va Ibsol» qissasida uchraydi. Bundan tashqari Ibn Sino ularda arab tilini tubdan chuqur bilgani sabablimi, har holda, ba'zan ma'lum bir fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlardan tanqari juda ko'p bir xil ma'noli so'zlarni tizib, qalashtirib yuboradi. Bu hol ayniqsa uning «Hayy ibn YAqzon» qissasida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ibn Sino tarjimai holida shunday bir naql bor:

Ibn Sinoning shogirdi Abu Ubayd Juzjoni bunday hikoya qiladi: bir kuni Ibn Sino til olimi Abu Mansur al Jabbon bilan amir Alaiddavla huzurida suhbatlashib o'tirganida arab tili haqida gap aylanib qoladi. SHunda Ibn Sino bu xususda o'z fikrini bildiradi. Uning gapi Abu Mansurga ma'qul tushmaydi, shekilli, u Ibn Sinoga kinoya bilan: «Sen hakim va faylasufsan, lekin tilchi emassan. Til kitoblarini o'qimagansan. SHu jihatdan sening gaping bizlarni qanoatlantira olmaydi», deydi. Abu Mansurning bu gapi Ibn Sinoga qattiq tegib ketadi va u shundan keyin uch-yil mobaynida tilni o'rganishga qattiq kirishib, til hakida yozilgan ko'p kitoblarni mutolaa qiladi. Abu Mansur al Azhariyning til haqidagi va boshqa kitoblarini Xurosondan so'ratib olib, qunt bilan o'qiydi. SHu tariqa u katta muvaffahiyatga erishadi. Keyin uchta qasida yaratadi. Bu qasidalarini juda kam ishlatiladigan so'zlar bilan szadi. Bundam keyin u uchta risola ham ijod qiladi. Risolaning birini Ibn al Omid uslubida, ikkinchisini as Sohib uslubida va uchinchisini as Sobiy asarlari ruhi va stilida yozadi. So'ngra yozganlarining hammasini muqovalatadi, jildi charmini timdalab va gijimlab, amir Alaiddavla ga eltib beradi va undan mazkur kitablarni, ovga chiqqanimda

yo'lda tonib olgan edim, ko'rib mazmunini gapirib bering, deb Abu Mansurga topshirishni iltimos qiladi.

Amir Alauddavla tilchini chaqirib, Ibn Sino aytgan gapni aytadi-da, kitobni unga beradi. Abu Mansur uni ko'zdan kechirib, ko'p joylariga tushuna olmay garang bo'ladi, shunda Ibn Sino unga qarab; «Sen bu kitobdagi tushunolmayotgan iboralar falon kitobning falon joyida aytilgan», deydi va unga til to'g'risidagi mashhur kitoblarni eslatadi. Abu Mansur tilchi bo'lmagan olimdan bu ganni eshitib, qattiq izza tortadi. Keyin u bu qasida va risolalarni Abu Ali ibn Sinoning o'zi yozganini nayqaydi va undan kechirim so'rashga hamda o'zini oqlashga urinadi. SHundan keyin SHayx —Ibn Sino «Lisonul Arab» («Arab tili») nomli kapital asarini yaratadi.

Menimcha, Ibn Sino ilgaritdan o'ylab yurgan «Salomon va Ibsol» va «YUsuf qissasi» asarlarini mana shu naytda yozganga o'xshaydi. CHunki ularda g'oyat nodir so'zlarning mavjudligi bilan Juzjoniyning hikoyasi o'rtasidagi yaqinlik, bizning nazarimizda, bunga guvohlik beradi.

SHunday qilib, Ibn Sino o'zining ko'p qirrali ijodida fanning turli tarmoqlarini qamrab ola bildi. Bu unga tabiatni yaxshiroq tushunishga, insonga va uning tabiatiga yanada chuqurroq kirib borishga imkon berdi. U o'z umrida ko'p adolatsizliklarni, darbadarlikni ko'rdi, har xil tabaqa kishilari bilan yaqindan munosabatda bo'ldi. U elementar fanlardan tortib to inson ruhigacha bo'lgan proqessni ziyraklik bilan kuzatdi, insonning og'ir turmushi va ahvolini ko'rib, uning dunyoqarashi kamol topdi. Urta asrning og'ir sharoitida umr kechirganiga, bir joyda qat'iy qo'nim topolmay, shaharma-shahar kezib yurganiga qaramay, keng fikrga ega bo'ldi, shuhrat qozondi. Olimni jahonshumul shuhrat qozonishga olib kelgan sabablardan biri shu bo'ldiki, u o'z davrining eng ilg'or, eng progressiv g'oyalariga ergashib, bu ilg'or va progressiv g'oyalarni o'z fikri va xulosalari bilan yanada boyitdi. Mana bu hol fan va

adabiyot tarixida benihoya katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki buyuk.mutafakkirning falsafa va adabiyot sohalariga ;bag'ishlangan asarlari SHarq va G'arbning juda ko'p atoqli kishilariga samarali ta'sir ko'rsatdi.

3.3. Ibn Sinoning o'zi yozgan tarjimai holi¹

Otam balxlik edi. Nuh binni Mansur zamonida u yerdan Buxoroga ko'chib keladi va Buxoro atrofidagi Xurmaysan² qishlog'ida hokimlik qilib, qishloqni boshqarish bilan shug'ullanadi. Bu qishloq eng yirik qishloqlardan sanalar edi. Uning yaqinida Afshana³ degan bir qishloq bor. Otam o'sha qishloqda onamga⁴ uylanib, shu erda turib qoladi. Men shu qishloqda tug'ildim, keyin ukam ham shu erda dunyoga keldi. So'ngra biz Buxoroga ko'chib keldik. Meni qur'on va adab muallimiga topshirishdi. (Bu mahalda) yoshim o'nga to'lgan edi. Bu vaqtda men

1. Ibn Sinoning arab tilida yozib qoldirgan bu tarjimai holi Ibn Abi Usaybianing "Uyunul anbo fi tabaqotil atibbo" (Tabiblar darajasini belgilashda xabarlar bulog'i) (II tom, Misr, 1882 yil, 2-4 betlar) kitobidan olib tarjima qilindi.

2. Hozirgi Rometon. 3. Xozirgi Isfana. 4. Onasining ismi Sitoro bo'lgan

qur'onni va adablarning ko'pini bilib olgan edim. (Odamlar) menga hatto ajablanadigan ham bo'lishdi. Otam misrliklar ta'limotining muxlisi bo'lib,

ismoiliylardan hisoblanardi. Otam ularning nafs va aql haqidagi gaplari, fikrlariga quloq solib yurardi. Ko'pincha ukam bilan otam bu xususda o'zaro suhbatlashib utirishardi. Men esa ularning gaplarini eshitib, nima haqda so'zlashayotganliklarini bilib yurar edimu, lekin ularning fikriga qo'shilgim kelmasdi. Ular meni hamfikrdoshlikka da'vat qila boshladilar. Ular falsafa, handasa (geometriya) va hind hisobi haqida ham suhbatlashar edilar.

Otam meni hind hisobini biladigan bir ko'kfurushning oldiga yubora boshladi. Men undan xind hisobini o'rganishga kirishdim. Keyin Buxoroga Abu Abdulloh Notiliy kelib qoldi. Uni faylasuf deb atashar edi. Menga ta'lim berar degan umidda otam uni uyimizga joylashtirdi. Uning kelishidan oldin ham men fiqh¹ bilan shug'ullanar, shu maqsadda Ismoil Zohidning oldiga qatnab yurar edim.

Fiqhchilarning tortishuvchi va bahslashuvchilarga e'tiroz bildirish usullarini o'rganib olgan va shu tufayli fiqhni eng yaxshi biladiganlardan biri bo'lib qolgan edim. Keyin Notiliydan «Isog'uvchi»² kitobini o'rgana boshladim. Notiliy menga: «Jins nima?» deb so'rasalar, «turli navlardan iborat bo'lgan kun narsalar jins deyiladi» deb javob bergin, deganida men jinsni shunday ta'riflab berdimki, Notiliyning o'zi ham bunaqangi ta'rifni ilgari hech eshitmagan ekan. U benihoya taajjublandi. Keyin otamga meni ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslik kerakligini uqdirdi. U mendan qaysi masalani so'ramasin, men bu masalani undan ko'ra durustroq tasavvur qilardim. Nihoyat, undan mantiqshshg yuzaki masalalari (zavohiri mantiq) ni o'rgandim, lekin mantiq ning nozik

1. Musulmon qonunshunosligi

2. Parfiriyning "Mantiq muqaddimasi" asari.

tomonlaridan u bexabar ekan. (Mantiqqa) oid kitoblarni va sharhlarni mustaqil o'qiy boshladim va, nihoyat, mantiq ilmini yaxshi bilib oldim. SHuningdek, Iqlidus¹

kitabining qolgan qismini o'zimcha hal qilishga kirishdim. So'ngra «Majastiyga² o'tdim. Uning muqaddimasini o'qib bo'lib, handasa shakllariga yetganimda, Notiliy menga shunday dedi:

«Endi uni sen o'zing o'qib, hal qilishga kirisha ber, keyin menga tushunganingni aytasan, men senga ularning to'g'ri yoki noto'g'riligini aytib beraman». U kishining handasa shakllaridan xabari yo'q edi. Men bu kitobni hal qilishga kirishdim. Qanchadan-qancha shakllarni unga men tushuntirib bermaganimgacha, u bilmagan bo'lardi. Keyin Notiliy mendan ajrab, Gurganchga³ jo'nab ketdi. So'ng «Fusus»⁴ kitobini, tabiiyot va ilohiyotga bag'ishlangan sharhlarni o'rganish bilan shug'ullandim.

Mening oldimda ilm eshiklari keng ochildi. Keyin tib ilmi (bilan shug'ullanishni) istab qoldim va shu sohaga oid kitoblarni o'qishga tushdim. Tib qiyin ilmlardan emas, shu sababdan men qisqa muddat ichida " bu sohada shunday yutuqlarga erisha oldimki, hatto fozil tabiblar ham kelib mendan tib ilmini o'rganadigan bo'ldilar. Bemorlarga ham qatnar edim. Orttirgan tajribalarim yordamida davolash eshiklari mening oldimda shunday keng ochildiki, uni ta'riflab bo'lmaydi. SHu bilan birga men ba'zan fiqhni (o'rganishga) ham qatnar edim va (bu to'g'risida) munozara qilib ham turardim. Bu vaqtda men o'n olti yoshga kirgan edim. Qeyin yana bir yarim yil ilm va o'qishga berildim: mantiq va falsafaning hamma bo'limlarini (asosli ravishda) qayta

1. Evklid – qadimgi yunon matematigi (Eramizdan oldingi 315 – 355 yil).

2. Qadimgi yunon olimi Ptolomeyning (Eramizdan oldingi II asr) “Almagesta” nomli asari.

3. Hozirgi Urganch.

4. Abu Nasr Forobiyning “Fusus al Hikam” asarini aytmoqchi.

o'qib chiqdim. Bu kezlarda biron kecha ham butun tun davomida uxlamas edim, kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmas zdim. (Mantiqqa oid) bir

qancha ravshan va aniq qoidalarni yodladim. Har bir hujjatni tekshirayotgaimda bir qancha qiyosiy muqaddimalarni isbot qilib, shu ravshan muqaddimalar nuqtai nazaridan o'sha hujjatni tartibga solardim. Qeyin muqaddimalarning shartlarini nazarga olib, ulardan chiqadigan natijaga qarardim. Nihoyat, bu masalada haqning haqiqati menga ayon bo'lib qolar edi... Qechqurunlari oldimga chiroqni qo'yib olib, to uyqu bosguncha o'qish va yozish bilan band bo'lardim. Agar uyqu bosib, o'zimni zaifroq sezsam, quvvat uchun bir qadah ichimlik ichishga tutinardim. Keyin (yana) o'qishga tushardim. Uxlayotgan vaqtimda ham o'sha o'ngimdagi masalalarni ko'rardim. SHu taxlitda kun masalalar tushimda menga ayon bo'lardi. SHunday qilib, hamma ilmlarni mustahkam egallab oldim, insonning qobiliyati imkon beradigan darajada ulardan xabardor bo'ldim. O'sha vaqtda nimalarni bilgan bo'lsam, hozir ham o'shandaymai; bugungi kungacha bilimimni undan oshirolganim yo'q. Nihoyat, mantiq, tabiiyot, riyoziy (matematika, geometriya) ilmlarni yaxshilab o'rgandim. Keyin ilohiyotni o'rganishga o'tib, «Metafizika» («Mo ba'da tabiata» — «Tabiatdan tashqari bo'lgan narsalar») kitobini o'qidim. Lekin unda yozilganlarni (o'qib) tushunolmadim, bu kitobni yozgan kishining maqsadi menga noaniq edi. Uni qirq bor qayta o'qib chiqdim. Menga bu kitob hatto yod bo'lib ketdi. SHunga qaramay, men uni va uning maqsadlarini baribir tushunolmadim. Undan umidimni uzib, bu tushunib bo'lmaydigan kitob ekan, degan (xulosaga kelgan) edim.

Kunlardan bir kun namozi asr vaqtida kitobfurushning oldiga borib qoldim. Bir dallol qo'lida muqovalangan (kitob) ni tutgan holda uni maqtardi. U meni ham yoiiga chaqirib, kitobni ko'rsatdi...

Men, bu ilmni bilishning foydasi yo'q, degan xayol bilan (kitobni) rad qildim. Dallol menga, «Bu kitobni ol, narxi arzon — uch dirham, egasi nulga muhtoj»,—dedi. Men kitobni sotib oldim. Qarasam, Abu Nasr Forobiyning (Aristotelning) «Metafizika» kitobi maqsadlari haqida yozgan asari ekan¹. Uyga kela solib o'qishga

tushdim. («Metafizika») diliida yod bo'lib qolgani sababli, shu ondayoq kitobning mazmuni menga ayon bo'ldi. Bundam juda xursand bo'lib ketdim. Ulug' tangriga shukur qilib, o'sha kun-ning ertasigayoq kambag'allarga ancha narsa sadaka qildim.

Bu vaktida Nuh ybn Mansur Buxoro podshosi edi. Ittifoqo u betob bo'lib qoldi. Tabiblar uning kasalini aniqlay olmabdilar. Uqishga qatgiq kirishganim sababli mening nomim ular o'rtasida mashhur bo'lib qolgan zdi.

SHoh huzurida mening haqimda gap bo'libdi; meni chaqirinshi so'rashibdi. Men borib, tabiblar bilan birga ishlab, uni davolaganim sababli, obro'yim ortib ketdi. Bir kun shohdan kutubxonasiga kirishga va u erdagi tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat so'radim. SHoh menga ruxsat berdi. Men ko'p xonalardan iborat kutubxonaga kirdim. Har bir xonada kitob sandiklari, bir-birining ustiga taxlangan kitoblar bor edi. Xonalarning birida arabcha kitoblar, she'rlar, boshqasida fiqhga oid kitoblar saqlanardi. SHu tartibda, har bir xonada fanning ma'lum bir sohasiga oid kitoblar to'nlangan edi.

Keyin salaflar yozgan kitoblar ro'yxatini o'qib chiqdim va bu ro'yxatdaa menga kerak bo'lgan kitoblarni talab qildim. Men bu yerda ko'pchilik hatto nomlarini ham eshitmagan kitoblarni ko'rdim. O'zim ham ularni avval ko'rmagan edim, bundan keyin ham ko'rmadim. O'sha kitoblarni o'qib, ulardagi foydali fikrlarni bilib oldim, kitobni yozgan har bir olimning ilmiy darajasini aniqladim.

1. Yunon faylasufi Aristotelning "Metafizika" asariga Abu Nasr Forobiy batafsil sharh yozgan. Ibn Sino bu yerda Forobiyning ana shu sharhi haqida gapiryapti.

Yoshim o'n sakkizga borganida bor ilmlarnint hammasini egallab bo'lgan edim. O'sha kunlarda ilmni yoddan bilar edim, lekin ilmim hozirgi kunda kamolga etishdi.

Mening bilimlarim yoshligimda o'rganganlarimdan iborat, undan keyin yangi bir narsa qo'shilgani yo'q.

Abulhasan al Aruziy degan bir qo'shnimiz bo'lar edi. U menda bor ilmlarning hammasini o'z ichiga oladigan bir kitob yozib berishni so'ragan edi. Men unga «Al Majmu'» (to'plam)ni yozib berdim. Kitobning nomini ham shunday deb qo'ya qoldim. Unga riyoziyotdan boshqa barcha ilmlarni kiritdim. O'sha mahalda yoshim yigirma birda edi.

Abu Bakr al Barqiy ismli asli xorazmlik bir qo'shnnm bor edi. U kishi tabiatan fiqh bo'lib, tafsir va norso (zohid)likda yagona edi. Uning o'zi ham bu ilmlarga mostil edi. (al Barqiy) mendan kitoblarga sharh yozib berishimni iltimos qildi. Men unga yigirma jildcha keladigan «Hosil va mahsul» degan kitob yozib berdim. Undan keyin yana unga axloq haqida «Kitobu birr val ism» («Xudojo'ylik va gunoh kitobi») degan asar ham yozib berdim. Bu ikki kitob ham bir nusxadan yozilgan bo'lib, undan boshqa kishilarda yo'q. U (qo'lidagi kitoblarini) hatto nusxa ko'chirib olaman deganlarga ham bermagan.

Keyin otam o'lib qoldi, ahvol butunlay o'zgarib ketdi. SHoh xizmatiga kirishga (majbur) bo'ldim. So'ngra zarurat meni Buxoroni tark qilishga, (Gurganchga ko'chib ketishga) majbur qildi. U erda ilmni qadrllovchi Abul Husayn as Sahliy vazir edi. U erning amiri Ali bin Ma'mun huzuriga bordim. Egnimga taylaeon va tax tulxanakli fiqhlari kiyimini kiyib olgandim. Men kabi kishiga kifoya qiladigan miqdorda oylik tayin qilishdi. Keyin zarurat Nisoga ko'chishga majbur qildi. So'ng Obivardga, undan Tusga, Tusdan SHaqqonga, undan Samniqonga, Samniqondan Xuroson chegarasi — Jojarmga, undan Jurjonga ko'chib yurishga majbur bo'ldim. Keyin Amir Qobusning oldiga kirishga qasd qildim. SHu orada Qobusni tutishib qal'alardan biriga qamab quyishgan edi. U o'sha erda o'ldi, Keyin Dehistonga¹

ketdim, u erda menga Abu Ubayd Juzjoniyl qo'shildi. Men unga o'z holimdan qasida yozib berdim. Qasidada mana shu bayt ham bor edi:

Men ulug' bo'lganimda, Misr (day keng joy) ham menga torlik qilib qoldi.

Mening qiymatim oshgach, xaridorim ham topilmay qoldi².

-
1. Bungacha keltirilgan shaharlar nomlarining hammasi Xuroson shaharlarining nomlaridir.
 2. Buyuk tabib va mutafakkir adibning o'zi haqida bergan ma'lumotlari shu yerda tugaydi. Ibn Sinoning bundan keying hayoti va ilmiy faoliyatini uning shogirdi Abu Ubayd Juzjoniyl yozib qoldiradi.

Umumiy xulosalar.

Istiqlolimizning dastlabki yillaridanoq ajdodlarimiz merosini har tomonlama

chuqur o'rganish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Buning boisi bor, albatta. Chunki O'zbekiston Respublikasining kelajagi bo'lgan komil insonning tarbiyalashda, shuningdek, jamiyatimiz mafkurasini yaratishda ma'naviy merosimizning o'rni beqiyosdir.

Shular qatorida Ibn Sino hayoti va ijodini o'rganish ham alohida tus oldi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi shahar va tumanlarida, ta'lim-tarbiya muassasalarida ham turli uchrashuv va muloqotlar, davra suhbatlari o'tkazilmoqda. Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi hamda Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limlari hamkorligida turli tadbirlarda ham bobolarimiz merosi haqida so'z boradi. Uning asarlarida kuylangan insoniy g'oyalar, falsafiy mushohadalar teran o'rganilib, xolisona va haqqoniy talqin etila boshladi. O'z asarlarida ezgulik, mehr-u muhabbat, insonparvarlik singari umumbashariy g'oyalarni tarannum etgan Ibn Sinoning boy va betakror ma'naviy merosi, asrlar o'tsa-da, o'zining jilosi, jo'shqinligi va ahamiyatini yo'qotmay kelayotir.

Ibn Sino ijodi o'zbek mumtoz adabiyotida xalqchilligi, ravonligi va purma'noligi bilan o'ziga xos o'rin tutadi. Uning ijodi xorijlik adabiyotshunos olimlarni ham qiziqtirib keladi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari ko'plab yevropalik va amerikalik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ibn Sino asarlari dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan. Uning asarlari milliy o'ziga xos bo'lib, umuminsoniy g'oyalarga boyligi bilan ajralib turadi. Asarlarining mazmuni milliy mfkuramizda aks etgan g'oyalar bilan to'lib toshib yotibdi.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov Oq saroyda so'zlagan ma'ruzalarida, "Fidokor" gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida bu kabi ma'naviy meroslar xususida alohida to'xtalib o'tganlar. Milliy g'oya, milliy mafkurani tiklash uchun milliy qadriyatlarning o'rni beqiyosligi, bebaho ma'naviy merosimizni o'rganish, tadqiq qilish va yoshlar ongiga singdirish zarurligini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Xalqimizning qadimiy va boy madaniyatida o'zbek mumtoz adabiyoti katta o'rin tutib keldi. O'zbek badiiy adabiyoti xalq tarixi bilan birgalikda uzoq, murakkab yo'lni bosib o'tdi. O'zbekiston adabiy hayoti bu umumdunyo adabiyotining tarkibiy qismi sifatida yagona jarayonda rivoj topa bordi. Mavoraunnahr so'z san'atkorlari adabiyotimiz xazinasini rango-rang asarlari bilan bog'liq holda xalq dardini, zamona dardini ifoda qiladilar. E'tibor va iste'dodlarini ko'proq ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarga qaratdilar.

Ijodkorlarning lirikasida ifodalangan kechinmalar, dard-hasratlar faqat ularning o'zigagina taalluqli bo'lmay, bular ommaning dard-alamlari, amalga oshmagan xalq orzularining ifodasi edi. G'azallarda kuylangan muhabbat umumbashariy his-tuyg'ular bo'li, ijtimoiy mohiyatga molik edi. Shu bilan birga, imon va diyonat, e'tiqod va dard bilan sug'orilgan tasavvufiy asarlar yaratilgan.

Har bir davr so'z san'atkorining ijodi o'zidan ilgarigi boy adabiy merosni o'rganish, ustozlar an'anasini davom ettirish asosida rivoj topdi. Adabiyotdagi yangiliklar shu an'analar zaminida yuzaga keldi. Adiblar mahorati o'zbek mumtoz adabiyoti bilan bir qatorda fors-tojik, ozarbayjon va boshqa Sharq adabiyotidan oziqlanish orqali takomillasha bordi. Ijodkorlarning asosiy ko'pchiligi ikki tilda – o'zbek va fors tillarida, ayrimlari esa uch va undan ortiq tillarda qalam tebratganlar. Mumtoz adabiyotimizning turli shakllarida davr ruhini bera olganlar.

So'z san'atkorlari til va boyliklaridan, xilma-xil ifoda va tasviriy vositalardan samarali foydalanganlar. Shu bilan birga, badiiy til vositasida tilimiz taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shganlar.

Beruniy, Farobiy, Farg'oniy, Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi zo'r iste'dod egalari Turkuston hududida tug'ilib, shu yerdagi adabiy muhitdan bahra olib o'sdilar. Barkamol asarlari bilan so'z san'ati rivojiga katta hissa qo'shganlar.

X-XII asrlar mamlakatimiz adabiy hayotida alohida, muhim bosqichni tashkil qildi.

O'lkada ro'y berayotgan o'zgarishlar bu davr adabiyotida, xususan, O'zbekiston so'z san'atkorlari ijodida o'zgachaliklarni yuzaga keltirdi. Badiiy adabiyot yangi mavzu, yangi mazmun, yangi g'oya yangi timsollar bilan boyidi. Unda xalqparvarlik, bular bilan bog'liq ma'rifatparvarlik kuchaydi. Ozodlik, istiqlol g'oyalari kirib keldi. Bu davrda ijod qilgan shoirlarining asarlarida bu g'oya va qarashlar yuqori pog'onaga ko'tarildi.

XX asr boshlaridagi adabiy muhit adabiyotning keyingi bosqichi bilan tutashib ketdi. Fitrat, Mahmudho'ja Behbudiy, Ibrat, So'fizodalar milliy uyg'onish va istiqlol g'oyalarini yangi davrda yangicha kuylashni davom ettirdilar. Usmon Nosir, Rafiq Mo'min kabi XX asrda yashab ijod qilgan yorqin iste'dod sohiblari bu g'oyalarni, ular bilan bog'liq yurak dardlarini zamon taqozosi bilan goh oshkora tarzda, goh ramziy timsollar vositasida ifoda qildilar.

XX asr o'zbek adabiyotiga yangi-yangi ijodiy kuchlar kelib qo'shila bordi. Ular adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shdilar va qo'shib kelmoqdalar.

Hozirgi adabiy jarayon ijodiy kuchlarga boy. Poytaxtda yoki viloyat hududlarida ijod qilayotgan adiblar mustaqillik nafasidan bahra va ilhom olgan holda, ustozlar an'analarini rivojlantirib, o'zbek adabiyotini turli janrlaridagi asarlari bilan boyitib bormoqdalar, adabiy ijoddagi iqtidor va iste'dodlarini namoyon qilmoqdalar.

O'zbekistonimizda yangi davr adabiyoti – istiqlol adabiyoti ravnaq topmoqda.

Ma'naviyat bugungi kunning muhim masalasi ekan, bu borada qilishimiz lozim bo'lgan ishlar hali ko'p. Chunki ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosini to'la o'rganilmagan, ochilmagan qirralari bir talay.

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” Toshkent, 2008
2. Karimov I.A Istiqlol va ma`naviyat. – T.: 1994
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. “Muloqot” jurn. 5-son. 1999-y.
4. Karimov I.A. Milliy taqrizchi.-T.: 2001.
5. Karimov I.A. Eng qadimiy, asl milliy, g`oyat ardoqli bayram, -T.:2002.
6. Каримов И.А., Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёти кафолатлари-Тошкент. Ўзбекистон, 1997
7. Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent, 2008

II. Ilmiy adabiyotlar

1. Ҳатамов Н. Саримсоқов Б Адабиётшунослик терминларининг русча ўзбекча изоҳли луғати. Т. Ўқитувчи 1983.
2. .Бобоев Т. Шеър илми таълими Т.1996
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.2002
4. Қуръонов Д ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т: академ нашр 2010.
5. Ҳожиаҳмедов. А. Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия. Тошкент. шарқ. 1998. 110-б
6. Payg`ambarlar qissasi. Shayx Zohidjon Qodir Otaxon Qodir o`g`li, Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1993.
7. Abdug`ofurov A., Jonibek Subhon. Dilim daryoi nurdur.-Toshkent: G`ofur G`ulom.
8. Юсупов Ж. Меҳрибоним қайдасан.- Тошкент: Гофур Гулом 1990
9. Абдуллаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи, 2-китоб, Тошкент. Ўқитувчи 1967.
10. Адизова И. Ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент. “Фан” 2009.
11. Aliyev S. va boshqalar. Adabiyot nazariyasi bo`yicha amaliy mashg`ulotlar, Buxoro, 1994.

12. Isxoqov Y. Talmih. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 3-son, 1970.
13. Karomatov X. Qur'on va o'zbek adabiyoti, Toshkent, O'z.F.A, "Fan", 1993.
14. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil, Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
15. Lapasov J, Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati Toshkent, "O'qituvchi", 1994
16. Раҳмонов Б.Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат Тошкент. Ўқитувчи 1983.
17. Сапоев. Аvezметов Ш Ўзбек тилидан арабча ва форсча сўзлар луғати Тошкент. Ўқитувчи , 1983.
18. Султон И Адабиёт назарияси, Тошкент. Ўқитувчи 1980.
19. Hasanov B. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at, Toshkent, O'z.F.A, "Fan", 1993.
20. Rasoilu hukamo, O'zFASHI kitob fondi, inv. N- 2385.
21. Ibn sino. Kitobul ishorat fil mantiq val hikmat. O'zbekiston CCR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti kitob fondi, inv. N- 2210.

Internetdan foydalanilgan adabiyotlar

1. WWW. Pedagog.uz.
2. WWW. Tdpu.uz.
3. WWW. uznature.uz.
- 4 .WWW. yuriollit.uz.
- 5 .WWW. Ziyonet.uz.
6. WWW. books.uz.
7. WWW. allpravo.uz.

NamDU filologiya fakulteti o'zbek tili
yo'nalishi 4-kurs 401-guruh talabasi
Umarova Feruza Nurali qizining "Ibn Sino ijodida
ma'rifatparvarlik" mavzusida yozgan bitiruv-malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Xalq orasida halollik, to'g'rilik, hakimlikning timsoli bo'lib gavdalangan Abu Ali Ibn Sinodek shaxsi va ijodi mashhur zotni topish qiyin. Ibn Sino ijodining bunday ta'sirchanligi esa, albatta, uning poetik mahorati bilan bog'liq hodisadir.

Poetik mahorat haqida so'z borar ekan, birinchi navbatda lirik qahramonning xarakter xususiyatlarini, o'z fikr-mulohazalarini qay darajada ocha olganligi nazarda tutiladi. Badiiy g'oya san'atkorning ichki olami, uning mahoratini ochib berishda asosiy rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan Umarova Feruza Nurali qizining "Ibn Sino ijodida ma'rifatparvarlik" mavzuidagi bitiruv-malakaviy ishi dolzarblik kasb etadi.

Talaba ishda Abu Ali Ibn Sinodek shaxsi va ijodi mashhur zot ijodini nazariy va amaliy jihatdan yoritishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'ygan:

- 1) Ibn Sino hayoti va ijodini o'rganishga oid tadqiqot, kitob va maqolalarni o'rganish;
- 2) o'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan маърифатпарварлик g'oyalarini o'rganish;
- 3) mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining badiiy mahoratiga oid tadqiqotlarni o'rganish;
- 4) Ibn Sino she'riyatida qo'llanilgan ma'naviy san'atlarni tahlil qilish;
- 5) Ibn Sino asarlarida uchraydigan маърифатпарварлик g'oyalarini tadqiq etish orqali ijodkor mahoratini ochib berish;
- 6) Ibn Sino ijodida diniy qarashlar bilan bog'liq fikrlarni ham tahlil qilish;
- 7) ijodkorning o'zbek adabiyotining rivojiga qo'shgan hissasini aniqlash.

Bitiruv – malakaviy ish puxta va izchil tuzilgan reja asosida yozilgan bo'lib, an'anaviy talablardan kelib chiqqan holda mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, manbalari, bitiruv-malakaviy ishning maqsad hamda vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, tuzilishi oddiy tarzda ifodalangan.

BMI hajman 74bet bo'lib, uch bob (har bob ikki fasldan iborat), xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Talaba Umarova Feruza Nurali qizi shoir hayoti va ijodini hamda badiiy mahoratini yaxshi o'rganishga harakat qilgan. Ibn Sino hayoti va ijodiga oid materiallarni, to'plagan va uch bob misolida guruhlashtirib tadqiq qila bilgan. Boblar va ularning bo'limlarida Ibn Sino hayoti va ijodi, uning lirikasi, uning mavzu ko'lami va hamda uslubining o'ziga xosligi ilmiy asosda atroflicha chuqur tahlil qilingan. Buning natijasida BMI ancha puxta chiqqan. Talabaning fikr-mulohazalari, shaxsiy umumlashmalari ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan.

Bitiruv-malakaviy ish tugallangan, DAK talablariga javob beradi. Uni himoyaga tavsiya qilaman. Mazkur ishni ijobiy baholashga loyiq deb bilaman.

Taqrizchi:

f.f.n. M.Sulaymonov.

NamDU filologiya fakulteti o'zbek tili
yo'nalishi 4-kurs 401-guruh talabasi Umarova
Feruza Nurali qizining "Ibn Sino ijodida
ma'rifatparvarlik" mavzusida yozgan bitiruv-
malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Abu Ali Ibn Sinodek shaxsi va ijodi mashhur zotni topish qiyin. Ibn Sino ijodining bunday ta'sirchanligi esa, albatta, uning poetik mahorati bilan bog'liq hodisadir.

Talaba Ibn Sino poetik mahorati haqida so'zlar ekan, birinchi navbatda lirik qahramonning xarakter xususiyatlarini, o'z fikr-mulohazalarini qay darajada ocha olganligi nazarda tutadi. Badiiy g'oya san'atkorning ichki olami, uning mahoratini ochib berishda asosiy rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan Umarova Feruza Nurali qizining "Ibn Sino ijodida ma'rifatparvarlik" mavzuidagi bitiruv-malakaviy ishi dolzarblik kasb etadi.

Talaba ishda Abu Ali Ibn Sinodek shaxsi va ijodi mashhur zot ijodini nazariy va amaliy jihatdan yoritishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'ygan, hamda mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli uddalagan. Ibn Sino hayoti va ijodini o'rganishga oid tadqiqot, kitob va maqolalarni o'rgangan. O'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan маърифатпарварлик g'oyalarini o'rganish, mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining badiiy mahoratiga oid tadqiqotlarni o'rganish, Ibn Sino asarlarida uchraydigan маърифатпарварлик g'oyalarini tadqiq etish orqali ijodkor mahoratini ochib berishga harakat qilgan.

Bitiruv – malakaviy ish puxta va izchil tuzilgan reja asosida yozilgan bo'lib, an'anaviy talablardan kelib chiqqan holda mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, manbalari, bitiruv-malakaviy ishning maqsad hamda vazifalari, nazariy va

amaliy ahamiyati, tuzilishi oddiy tarzda ifodalangan.

BMI hajmi talab darajasida bo'lib, uch bob (har bob ikki fasldan iborat), xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Talaba Umarova Feruza Nurali qizi ijodkor olim hayoti va ijodini hamda badiiy mahoratini yaxshi o'rganishga harakat qilgan. Ibn Sino hayoti va ijodiga oid materiallarni, to'plagan va uch bob misolida guruhlashtirib tadqiq qila bilgan. Boblar va ularning bo'limlarida Ibn Sino hayoti va ijodi, uning lirikasi, uning mavzu ko'lami va hamda uslubining o'ziga xosligi ilmiy asosda atroflicha chuqur tahlil qilingan. Buning natijasida BMI ancha puxta chiqqan. Talabaning fikr-mulohazalari, shaxsiy umumlashmalari ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan.

Bitiruv-malakaviy ish tugallangan, DAK talablariga javob beradi. Uni himoyaga tavsiya qilaman. Mazkur ishni ijobiy baholashga loyiq deb bilaman.

Taqrizchi:

f.f.n.dots. Z.Sodiqov.

NamDU filologiya fakulteti o'zbek tili
yo'nalishi 4-kurs 401-guruh talabasi Umarova
Feruza Nurali qizining "Ibn Sino ijodida
ma'rifatparvarlik" mavzusida yozgan bitiruv-
malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Bashariyat nigohini o'ziga qarata bilgan san'atkorlar jahon adabiyoti maydonida ham unchalik ko'p emas. Shunday san'atkorlardan biri Ibn Sinodir. Hayoti afsonalarga qorishib ketgan, surati-yu siyrati rivoyatlarda bayon etilgan. Xalq orasida halollik, to'g'rilik, xalqqa haqiqiy tabiblikning timsoli bo'lib gavdalangan Ibn Sinodek shaxsi va ijodi mashhur zotni topish qiyin. Ibn Sino ijodining bunday ta'sirchanligi esa, albatta, uning poetik mahorati bilan bog'liq hodisadir.

Poetik mahorat haqida so'z borar ekan, birinchi navbatda san'tkorning lirik qahramonning xarakter xususiyatlarini, o'z fikr-mulohazalarini qay darajada ocha olganligi nazarda tutiladi.

Umarova Feruza Nurali qizining "Ibn Sino ijodida ma'rifatparvarlik" mavzusidagi malakaviy ishida shu masalalar izchil, keng ko'lamda, reja asosida ham nazariy, ham amaliy jihatdan yoritilgan. Bitiruv-malakaviy ish har tomonlama puxta tuzilgan reja asosida yozilgan bo'lib, ishning kirish qismida an'anaviy talablardan kelib chiqilgan holda mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, manbalari, bitiruv-malakaviy ishning maqsad hamda vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, tuzilishi sodda, tushunarli usulda ifodalangan.

Mazkur kichik tadqiqotda talaba o'z oldiga Ibn Sino ijodida ma'rifatparvarlik haqida keng va umumlashgan ma'lumot berish, Ibn Sino hayoti va ijodini o'rganishga oid tadqiqot, kitob va maqolalarni o'rganish; mumtoz adabiyotimiz

namoyondalarining badiiy mahoratiga oid tadqiqotlarni o'rganish kabi vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirgan.

Ta'kidlash joizki, talaba bu vazifalarni bajarishga erishgan. Ishda Ibn Sino asarlaridagi insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarining ifodalanishi misollar vositasida atroflicha tahlil qilingan. Mazkur tadqiqot materiallaridan oily o'quv yurtlarida, akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanlarida Ibn Sino ijodiy mahoratini o'rgatishda foydalanish mumkin.

Bitiruv – malakaviy ishda ma'lumotlarni ishonarli dalillar bilan ifodalash talab darajasida amalga oshirilgan. Ular hozirgi kun talablariga javob beradi. Talabanning fikrlari va chiqargan xulosalari asosli.

Bitiruv – malakaviy ish o'z yakunini topgan. Ishning rasmiylashtirilishi DAK talablariga javob beradi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar :

katta o'qit. A.Omonov